

### “Zina” testi.



Testning maqsadi: boladagi o'ziga bo'lgan ishonchni aniqlash.

Yosh: 1- 4 sinf.

O'quvchilarga quyidagi vazifa beriladi:

“Bolalar, qo'lingizdagi qog'ozga 10 ta zinani chizing (psixolog bu zinalarni doskaga chizib ko'rsatadi).

Eng pastki zinaga chiqa oladigan o'quvchilar past bahoga o'qishar ekan. Ikkinci zinaga o'rtacha o'quvchilar, uchinchisida undan yaxshiroqlari va eng baland zinaga eng kuchli o'quvchilar chiqa olishar ekan. O'zingizga baho bergen holda qaysi zinaga chiqa olishingizni chizib bering. O'qituvchingiz sizni qaysi zinaga chiqaradi, deb o'ylaysiz? Ota-onangiz sizni qaysi zinagacha chiqa oladi, deb o'yplashadi?

Testni baholash:

1-3 zina – o'ziga past baho berish;

4-7 zina – o'ziga adekvat baho berish;

8-10 zina – o'ziga yuqori baho berish.

Zina metodi maktabgacha bo'lgan bolalarda va birinchidan to'rtinchi sinfgacha bo'lgan bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni aniqlash testidir.

Bu test orqali bola o'zidagi imkoniyatlarni, hozirgi ahvolini anglab yetadi. Real “Men” bilan, maqsad qo'yanidagi paydo bo'lgan “Men”iga o'zini solishtiradi. Real ichki “Men”i bilan orzusidagi “Men”ining mos kelishi bolaning ruhiyatidagi kuchni ifodalaydi.

Bolaning o'ziga ishonchi o'z resurslarini to'g'ri baholay olishi orqali shakllanadi. Resurslariga katta baho berish ota-onada tomonidan ortiqcha maqtovlar sababli paydo bo'layotgan bo'lishi mumkin. Resurslariga past baho berish esa, ota-onada tomonidan bolaga past nazar bilan qarash orqali bo'lishi mumkin. O'qituvchiga ikkala holat ham noqulaylik tug'diradi.

O'ziga real “Men”idan yuqori baho berayotgan bola va ota-onada o'qituvchini past baho qo'yishda ayblaydi. O'ziga ishonch tuyg'usini paydo qilish uchun real “Men”i past bolaga biroz baland baho qo'yishi, uni maqtashi ota-onada tomonidan

“bolaga qattiqqo'l bo'lavering” degan talabga ham olib kelishi mumkin.

Bolaning o'ziga yaxshi berishi o'ziga ishonch, atrofdagilarning mehriga, hurmatiga sazovor ekanligidan dalolat beradi. O'ziga past baho berish esa, o'zini ayblash, yomon ko'rish, atrofdagilaridan qo'llab-quvvatlashga sazovor bo'lmaslik tuyg'ularini ifodalaydi.

Boladagi o'ziga ishonchni korreksiya qilish uchun “Zina” testining ikkinchi qismini o'tkazish zarur. Buning uchun bolaga yettita zina chizishni va yetti zinaning o'rtasi kattaroq maydon ekanligini tushuntiriladi.

Instruksiya: Agar, barcha bolalarni mana shu maydondagi o'rtta zinaga o'tqazsak, tepa zinaga o'tish judayam oson va pastki zinaga sakrab tushish ham judayam osonlashadi.

Siz tepaga sakrab chiqa olarmidingiz? Pastga sakrab tushish sizga nima uchun kerak? Siz pastki zinaga sakrab tushdingizmi? Endi o'zingizni qaysi zinada tasavvur qilayapsiz?

Baribir o'zini pastki zinaga tushirgan bola bilan psixolog individual ishlashiga to'g'ri keladi.

Hurmatli ota-on! Siz farzandingizni qaysi zinada tasavvur qildingiz? Farzandingizning o'qituvchisi bolangizni qaysi zinada ekanligini baholamoqda? Farzandingizning o'ziga bergen bahosi o'ziga bo'lgan ishonch darajasini ifodalaydi.

Farzandingizning o'ziga bo'lgan ishonchini faqat va faqat ota-onha jamiyat (maktab, bog'cha, o'rtoqlari, mahalla) yordamida shakllantiradi.

## 2. “Daraxt”

SHarhslash, izohlab berish K.Koxudan K.YUngning ixtiyoriga o'tadi. U shunday deydi: «daraxt-tik turgan odam ramzi».

Ildiz-jamoatchilikka beriluvchan, tushunchasi past.

Tanasi-tug'ma his.

SHohi-sustkashtlik.

SHarhslash-daraxt rasmini sharhslashni oladigan bo'lsak, o'zidagi doimiy yadrosi, ya'ni ildiz, tana, shohi va bezalishining tarkibiy qismlari-barglari, mevasi, manzarasi.

Biz shunga e'tibor berishimiz kerakki, ruhshunoslar sog' odamlar bilan psixologik konsultasiya olib borayotganda, ularning manzilgao'xshash ta'rif aytmoqligimiz dargumon bo'lib chiqishi mumkin. Bunday muloqotda biz sizlarga sharhslash variantini qo'llashni tavsiya etamiz.

Bu sharhslash varianti zamonaviy adabiyotlar asosida tayyorlangan bo'lib, har kungi amaliyotingizda psixologik maslahat berishingizda katta yordam berishi mumkin.

Tuproq. Varaqning o'ng chetidan tuproq ko'tarilayotgan bo'lsa-g'ururla,

g'ayratli, tashabbuskor. Tuproq varaqning chetidan tushayotgan bo'lsa-quvvat ketishi, intilishi kam.



### Ildiz.

Ildiz tanadan kichikroq-yashiringan, berkitilgan narsalarni ochib ko'rishni xohlaydi. Ildiz tana bilan teng bo'lsa-allaqachon namoyon bo'lgan muammosigao'ta kuchli qiziqish. 'Ildiz tanadan kattaroq bo'lsa-qattiq sinchkovlik, vahimaga solishi mumkin. Ildiz chiziq bilan belgilangan-sir tutishlik munosabatida yosh bolalarcha fe'l-atvor.

Ildiz ikki chiziq ko'rinishida-to'g'ri baholashda farqlay olishlik va muhokama qilish qobiliyati: bu ildiz shaklining boshqalardan farqi u begonalar oldida yoki yaqinlari orasida ba'zi bir g'oyalarni ifodalab berishni yoki ularni hayratda qoldirish bilan yashashni xohlaydi.

Bargning shakli-daraxt tepasi dumaloq-benihoya xursandchilik, hayajonli.

Barglarning yumaloqliligi-o'zini keraksizday va umidsiz his qilish.

YUpatuvchi va rag'batlantiruvchilarni istash.

SHoh pastga qaratilib chizilgan-mardonavorlikni yo'qotish, tirishqoqlikdan voz kechish.

SHohlari tepaga qaratilgan-tashabbuskor, shiddatli va hokimiyatga intilish.

SHohlari har hil tarafga yo'naltirilgan-o'zini ma'qullovchi aloqa, xovliqma, atrofdagilarga ta'sirchan, unga qarshi turmaslik kerak.

To'r-barg, ko'proq yoki ozroq zichlikda-muammoli vaziyatdan chiqishda katta yoki kichik uddaburonlik.

Barglar egri chizilgan-zehni baland holda, atrofdagilar oldidao'zini ochiq tutishlik.

Bir rasmida bargning ochilishi va yopilishi-beg'araz va xolislikni istaydi.

YOpiq holatdagi barg-o'zining ichki dunyosini yosh bolalarcha himoya qilmoq.

YOpiq holatdagi qalin barg-tajovvuzkorlikning namoyon bo'la olmasligi.

Bir chiziq ostida chizilgan shoh-voqelikdagi ko'ngilsizliklardan qochish, ...

Yo'g'on shohlar-haqiqatni yaxshi ajratish.

Bargdagi xalqalar-ehtiyotkorlik va sir boy bermaslik.

To'rsimon barg-ko'ngilsiz tuyg'ulardano'zini olib qochish.

Naqshsimon barglar-jozibadorlik, ayollik latofati, xushmuomalik.

Palmasimon-joyo'zgartirishga intilish.

Majnuntol-sog'lik va quvvatning yetishmasligi, suyanchig'iga tayanishni va aloqao'rnatishga intilish, o'tmishga va bolalikdagi tajribasiga qaytish; biror qaror qabul qilishdagi qiyinchilik.

Tana-onasi izidan borishga harakat, onasi nima qilsa, u hamo'sha ishni qilishlik yoki otasigao'xshashlikni xohlashlik. U bilan kuch sinamoqlik omadsizlik refleksi.

Kubba (gumbaz) shaklidagi tana-unga qarshi turib bo'lmaydi va bu narsa uning tashqi qiyofasida aniq sezilib turibdi.

Bargningo'rtasini bo'luvchi chiziq-passivlik, yumshoqlik, beriluvchanlik.

Bir chiziqdan iborat bo'lgan tana-mayda-chuyda narsalarga to'g'ri qarashlikni rad etish.

Tanasi nozik chiziqlar bilan chizilgan, shoh barglari esa yo'g'on-o'zini tasdiqlay oladi va erkin ish tutadi.

Barglar nozik chiziqlar bilan chizilgan bo'lsa-tabi noziqlik, ta'sirchanlik.

Tana chiziqlari qalamda qattiq bosib chizilgan-faollik, samaralilik va qat'iyatlilik.

Tana chiziqlari to'g'riga yo'naltirilgan-chaqqonlik, hozirjavoblik, tashvishli va xavotirga soluvchi faktlarda to'xtalib qolmaydi.

Egri chiziqli tana-faolligi vaxima bilan to'xtatilgan bo'lib, uni yengib bo'lmaslikka qarshilik fikri ila yuradi.

SHoh tanaga bog'lanmagan-haqiqatdan qochishlik, haqiqat uning istak-xohishiga tegishli emas, orzu vao'yinga qochishga harakat qiladi.

Tana ochiq barglar bilan tutashgan-aniq faoliyati (intellekti) yaxshi, zehni yetarli, o'zining ichki dunyosini saqlay olishlik imkoniyati.

Tana yer tuproqdan uzoqlashgan-tashqi olam bilan muloqotda kamchiliklar; kundalik hayotida va ma'naviyati ozroq.

Tana pastdan chegaralangan-baxtsiz his qilish, madad, yordam izlashlik.

Tana quyiga borganda kattalashsa-o'zini atrofdagilardan ishonchli mavqeini izlash.

Tana quyiga borganda toraysa-istalgan tayanchni bera olmaydiganlar orasida o'zini bexatar sezish xavotirli, olamga qarshio'zini «Men» ni ajratib, mustahkamlashga intilish.

Umumiy uzunlik:

Varaqning pastgi qismi-tobe'lik, o'ziga ishonuvchanlikni yetishmasligi,

hokimiyat haqidagi orzulari.

Varaqning yarim pastgi qismi-so'zlashda, tasvirlashda ozroq tobelik.

Varaqning uchdan bir qismi-odamlar orasida yaxshi moslashuvchanlik.

Varaqning butunligicha olinishi-sezilarli bo'lib yurishni xohlaydi, o'zgalarga umid bog'lamoq, o'zini ma'qullashlik.

### **3. O'quv motivini baholash metodikasi (Luskanova).**

Mazkur metodika 6 – 8 yoshdagi bolalarning o'quv motivasiyasi, matabga bo'lgan munosabati, o'qish bilan bog'liq vaziyatga nisbatan emosional reaksiyasini aniqlashga qaratilgan. (metodika N.G.Luskanova tomonidan taklif etilgan).

Anketa savollari.

1. Senga maktab yoqadimi yoki unchalik yoqmaydimi?

A.unchalik yoqmaydi.

B.yoqadi

V.hecham yoqmaydi.

2. Ertalab uyg'onib, doim xursandchilik bilan maktabga kelasanmi yoki ko'pincha uyda qolishni istaysanmi?

A.ko'pincha uyda qolishni istayman

B.ba'zida borishni, ba'zida qolishni istayman

V.xursandchilik bilan maktabga boraman

3. Agar o'qituvchi ertaga xohlaganlar kelib, xohlaganlar kelmasligi mumkin desa, sen maktabga borarmiding?

A.bilmadim

B.uyda qolardim

V.maktabga borardim

4. Biror bir dars bo'lmasligi senga yoqadimi?

A.yoqmaydi

B.ba'zida yoqadi, ba'zida yoqmaydi

V.yoqadi

5. Uy vazifalaring yo'q bo'lishini xohlarmiding?

A.xohlardim

B.xohlamasdim

V.bilmadim

6. Maktabda faqat tanaffus bo'lishini xohlarmiding?

A.bilmadim

B.xohlamasdim

V.xohlardim

7. Sen ota – onangga maktab hakida ko'p gapirib berasanmi?

A.ko'p gapirib beraman

- B.kam gapirib beraman  
 V.umuman gapirib bermayman.  
 8. O'qituvching o'rniliga boshqa mehribonroq o'qituvchi kelishini xohlarmidinq?  
 A.bilmadim  
 B.xohlardim  
 V.xohlamasdim  
 9. Sinfda o'rtoqlaring ko'pmi?  
 A.kam  
 B.ko'p  
 V.umuman yo'q  
 10. Senga sinfdoshlaring yoqadimi?  
 A.yoqadi  
 B.unchalik yoqmaydi  
 V.yoqmaydi.
- Eslatma: mazkur anketa individual tarzda hamda guruhda qo'llanilishi mumkin.
- Natijalarni qayta ishslash uchun quyidagi kalitdan foydalilaniladi.

<b>Savollar</b>	<b>1-javob uchun ball</b>	<b>2-javob uchun ball</b>	<b>3-javob uchun ball</b>
1	1	3	0
2	0	1	3
3	1	0	3
4	3	1	0
5	0	3	1
6	1	3	0
7	3	1	0
8	1	0	3
9	1	3	0
10	3	1	0

Natijalarni baholash:

1. 25 – 30 ball. O'quv motivasiyasi yuqori. Bunday bolalar o'zining bilish motivi kuchli ekanligi, barcha topshiriqlarni yaxshi bajarishga intilish bilan ajralib turadi.
2. 20 – 24 ball. O'quv motivasiyasi o'rtacha. Bunday o'quvchilar guruhi o'quv faoliyatini ancha muvaffaqiyatlari amalga oshirilgan bolalardan tashkil topadi.
3. 15 – 19 ball. Maktabga munosabat ijobiy, ammo bolani ko'proq o'qish bilan bog'liq bo'lмаган томонлар qiziqtiradi. Bunday o'quvchilar maktabda o'zlarini yaxshi his etadilar, biroq maktabga asosan o'rtoqlar, o'qituvchilar bilan

suhbatlashish, chiroyli o'quv qurollariga ega bo'lish uchun boradilar.

4. 10 – 14 ball. O'quv motivasiyasi past. Bunday bolalar mактабга borishni xohlamaydilar, darslarda bekorchи narsalar bilan shug'ullanib, o'ynab o'tiradilar.

5. 10 balldan past. Maktabga nisbatan salbiy munosabat, moslashmaganlik mavjud. Bunday o'quvchilar o'quv faoliyatini bajarishga qiynaladilar, tengdoshlari va o'qituvchilar bilan bo'lган munosabatda muammolarga duch keladilar, ularda ayrim hollarda nerv – psixik salomatlikning buzilishi kuzatiladi.

Eslatma: Anketani ikki usulda qo'llash mumkin.

1 – usul. Savollar eksperimentator tomonidan o'qib eshittiriladi va javob variantlari taqdim etiladi, bolalar o'zi tanlagan javobni yozib qo'yadi.

2 – usul. Savollar har bir bolaga alohida – alohida yozma ko'rinishda tarqatiladi, bolalar tegishli javoblarni belgilaydilar.

Metodika haqida qo'shimcha ma'lumot: so'rovnoma dagi savollar 200 nafar 6 – 8 yoshdagи o'quvchi bilan o'tkazilgan so'rov asosida bolalarning maktabga, o'qish jarayonida bo'lган munosabatini to'liqroq aks ettiruvchi savollar sifatida ajratib olingan.

(Metodika manbasi: Ratanova T.A., SHlyaxta N.F. Psixodiagnosticheskie metody izucheniya lichnosti: Uchebnoe posobie. – Pererabotannoe i dopolnennoe izdanie posobiya: T.A.Ratanova, L.I. Zolotareva, N.F.SHlyaxta «Metody izucheniya i psixodiagnostika lichnosti» - M.: Moskovskiy psixologo – sosialniy institut: Flinta, 1998. 60 – 64 betlar.)

#### **4. Lyusherning testi**

Lyusherning testi sinalayotgan odamning ma'lum bir faoliyati, kayfiyatiga, funksional holat va shaxsning eng barqaror tomonlariga yo'nalishi rang tanlashda ifodalanadi degan taxminda asoslangan.

CHet el psixologlari Lyusher testini kasbga yo'naltirishda, hodimlarni tanlashda, ishlab chiqaruvchi jamoani yig'ganida, etnik va gerontologik tadqiqotlarda, kelin-kuyovlar bir-birlarini tanlashdagi tavsiyalarida va boshqa hollarda ko'p ishlatiladi.

Ranglarning ma'nosi ularning psixologik interpretasiyasida har xil sinalayotganlarning ko'p sonli kontingentini har tomonlama o'rganish davomida tadqiq qilinadi.

Lyusher bo'yicha ranglarni ta'riflash 4 asosiy va 4 qo'shimcha ranglarni o'z ichiga oladi.

Asosiy ranglar

Ko'k-tinchlik, qoniqarli holatni ifodalaydi.

Ko'k-yashil-dadillik, qat'iylik gohida qaysarlik hissini ifodalaydi.

Sariq-qizil-irodali kuch, aggressivlik, jangovarlik, va qo'zg'atuvchanlikni

ifodalaydi.

Och-sariq-aktivlik,muloqotga intiluvchanlik, ekspansivlik, xushchaqchaqlik hissi.

Asosiy ranglar konfliktning yo'qligida optimal holatda ko'proq birinchi 5 pozisiyani egallashi zarur.

Qoshimcha ranglar:

siyohrang

jigarrang

qora rang

nolga barobor bo'lgan.

Ular salbiy yo'nalishlarni: xavotir, stress, qo'rquv, xafagarchilik hislarini bildiradi. SHu ranglarning (asosiy ranglar kabi) yuqori darajada pastda ko'rsatilganidek ularning o'zaro joylashishi, pozisiyalariga bo'lib tashlashi aniqlanadi.

Psixolog uchun ko'rsatma:

Rangli kartochkalarni aralashtiring va rangli tomonini tepaga qaratib qo'ying.sinaluvchiga 8 rangdan eng yoqqanini tanlashni taklif qiling. Unga tushunrish kerakki, u rangni shundayligicha, o'zining kiyimidagi yoqtirgan rangga, ko'zlarining rangiga va boshqalariga o'xshatmasligi kerak. Sinalayotgan 8 rangdan eng yoqimlisini tanlash zarur.

Tanlangan kartochkani rangli tomonini pastga qaratilib bir chekkaga olib qo'yishi zarur. Prasedurani qaytaring. Kartochkalarning nomerlarini qo'yilgan tartibda yozib oling. 2-3 daqiqadan so'ng kartochkalarni rangli tmonini tepaga ko'tarib qo'yib chiqing prasedurani xuddi shunday qaytaring.

SHundan tushunavering: sinalayotgan odam birinchi tanlashdagi tartibni eslamay, o'ngli ravishda oldingi tartibni o'zgartirmasligi kerak. U ranglarni xuddi birinchi martda ranganganidek tanlashi kerak.

Birinchi tanlashni xoxlayotgan xolatni, ikkinchi haqiqiy xolatni ta'riflaydi. Tadqiqotning maqsadiga qarab sinovning natijalarini izohlash mumkin. Sinovning natijasida sakkiz pozisiyani xosil qilamiz: birinchi va ikkinchi yaqqol afzal ko'rish (+ + deb belgilanadi).

Uchinchi va to'rtinchi afzal ko'rish (XX belgilanadi).

Beshinchi va oltinchi rangga befarqlik (= = belgilanadi).

Ettinchi va sakkizinchi rangga antipatiya ( - = belgilanadi).

Tadqiqotlarning 36,000 ziyod natijalarning tahlili asosida M.Lyusher tanlangan pozisiyalarni taxminiy ta'rifi berdi.

Beshinchi pozisiya maqsadiga yetish vositasilarini aks etadi. (masalan, ko'k rangni tanlash xotirjam ortiqcha zo'r berishsiz harakat qilish niyatini bildiradi)

Ikkinci pozisiya sinaluvchining intitlayotgan maqsadini ko'rsatadi.

Uchinchi va to'rtinchi pozisiyalar rangni afzal qilish sinalayotgan bo'lган haqiqiy situasiyani xis etish yoki situasiyaga qarab harakat qilish tarzini ta'riflaydi.

Beshinchi oltinchi pozisiyalar rangga bo'lган befarqlikni unga bo'lган betaraf munosabatini bildiradi. Ular sinalayotgan o'zining holatini, kayfiyatini va motivlarini bu rangla bilan bog'lamasligini bildiradi.

Biroq bu pozisiya ma'lum bir vaziyatda rangning rezerv izohlashiga ega bo'lishi mumkin, masalan, ko'k rang (xotirjamlik rangi) shu vaziyatga mos kelmaydigan vaqtinchalik chekkaga olib qo'yiladi.

Ettinchi va sakkizinchi pozisiya rangga bo'lган salbiy munosabatni, bu rang aks etadigan ehtiyoji, motivi, kayfiyatini bildirmaydi.

++ x x == --

3 4 1 0 2 5 6 7

Tanlangan ranglarning yozilishi nomerlarning ro'yhati afzal ko'rish tartibida pozisiyalarni ko'rsatish orqali amalga oshadi.

Masalan, qizil, sariq, ko'k, kulrang, yashil, siyohrang. Jigarrang va qora ranglar tartibda tanlanganda quyidagicha yoziladi:

++ x x == - -

3 4 1 0 2 5 6 7

(++; x x; ==; - -; ) zonalar 4 funksional guruhni tashkil etadi.

Testdan o'tkazish natijalarini izohlash.

Belgilaganimizdek, tanlanish natijalarini izohlash usullaridan biri asosiy ranglarga baho berishdir. Agar ular beshinchi pozisiyadan keyingilarni egallasa, demak, ular ta'riflaydigan xossalari, ehtiyojlari qoniqtirilmagan, shunday ekan, xavotir, salbiy holat o'ringa ega.

Asosiy ranglarning o'zaro bo'lган holati ko'rib chiqiladi. Masalan, NI va 2 (ko'k va sariq) yonma-yon joylashsa ( funksional guruhni tashkil qilib), ularning asosiy xislati "ichkariga" sub'ektiv yo'nalishi ta'kidlanadi.

2 va 3 ranglari yonma-yon (yashil va qizil) joylashsa muhtorlik, masalani yechishda mustaqillik va tashabbuskorlikni ko'rsatadi. 3 va 4 (qizil va sariq) ranglarning birgaligi, boshqa yo'nalishlari ta'kidlanadi. 1 va 4 (ko'k va yashil) ranglarning birikmasi sinalayotganlarning muhitga qaramligining tasavvurlarini kuchaytiradi.

1 va 3 ( ko'k va qizil) ranglarning bitta funksional guruhda birgaligi muhitga qaramlik va sub'ektiv yo'nalishining (ko'k rang) va muxtorlik, "ichiga" yo'nalish (qizil rang)ning g'animat balansi ta'kidlanadi. YAshil va sariq (2va4) ranglarning birikmasi "ichkariga" sub'ektiv yo'nalishi, muxtorlik va qaysarlik "tashqarisiga" yo'nalishiga, muhitga qaramlikka qarama-qarshiligi sifatida ko'rildi.

Lyusherning fikricha, asosiy ranglar quyidagi psixologik ehtiyojlarni ifodalaydi:

(Ko'k) qoniqishga, xotirjamlikka, barqaror ijobiy mehribonlikka bo'lgan ehtiyoj.

(YAshil) o'zini ta'kitlashga bo'lgan ehtiyoj

(Qizil) faolli harakatga va niyatga erishish ehtiyoji.

(Sariq) istiqbolga.

## 5. “Uycha” metodikasi

4-7 yoshdagи bolalarning o'z tengdoshlari bilan munosabatlari xarakteri, ularning guruh a'zolarini yoqtirishi va yoqtirmasligini «Ikki uycha» (2) metodikasi orqali aniqlash mumkin.

Rag'batlantiruvchi material qog'oz varog'ida ikkita katta bo'limgan uycha chizilgan. Ulardan biri — kattaroq, qizil rangda, boshqasi esa — qora rangda. Qoidaga ko'ra, bu rasmlar oldindan tayyorlanmaydi, bolaning ko'z oldida qora va qizil qalamlarda chiziladi.

Ko'rsatma. Mana bu uychalarga qara. Tasavvur qil, qizil uycha seniki va bu uyga sen kimni xohlasang o'shani taklif qilishing mumkin. O'ylab ko'r, guruhingdagи bolalardan qay birini o'z uyingga taklif qilasan, qay birini qora uychaga joylashtirasan.

Test o'tkazish. Bolalarga rasm chizish jarayonida birinchi qizil uychada har xil o'yinchoqlar, kitoblar borligi, qora uychada esa o'yinchoqlar deyarli yo'qligi tushuntiriladi. Ko'rsatmadan keyin katta yoshdagи odam bolaning qizil uyga taklif qiladigan va qora uychaga joylashtiradigan tengdoshlarining ro'yxatini yozib oladi. Suhbatdan so'ng bolalardan biror bir tengdoshining joyini almashtirishpi xohlashi yoki yana kimnidir esdan chiqarib qo'yaganligi haqida so'rash mumkim

Natijalar tahlili. Test natijalarini sharhlash oddiy: tengdoshlarini qora yoki qizil uychalarga joylashtirishi orqali bolaning kimni yoqtirishi yoki yoqtirmasligini bilish mumkin. Tengdoshlarining asosiy qismini qora uychaga joylashtirayotgan o'zi qizil uychada yolg'iz qolayotgan yoki o'zini kattalar qurshovida qoldirayotgan bolalarga alohida e'tibor berish kerak.

Bu bolalar yoki juda odamovi, muloqotga kirisha olmaydigan yoki o'ta janjalkash, hamma bilan urushishga ulguradiganlar toifasiga kiradi. Bu bolalalarning guruhdagи o'z mavqeidan qoniqish darajasini aniqlash va ularda janjalkash bolalarga xos bo'lgan hukmronlikka intilish hissining mavjudligini ko'rsatish maqsadida «Niqob» usulidagi testdan foydalanish tavsiya etiladi.

№	Tanlaydigan shaxs	Tanlaydigan shaxs				
		1	2	3	4	5

1						
2						
3						
4						
5						
N						
	«+»tanlovlarsoni					
	«-» tanlovlar soni					
	Mavqe					

$$S = NB / Nx(N-1)$$

Bunda S — guruhning emosional jipslashganligi;

NV — guruhdagi o'zaro tanlov miqdori;

N — guruh ishtirokchilari soni;

N-(N-1) — guruhdagi bo'lishi mumkin bo'lgan o'zaro tanlovlarning umumiyligi.

soni.

#### 6. Egotsentrik assotsiatsiyalar testi (T.I.Pashukova)

O'quvchinng IFO \_\_\_\_\_

Sinfi \_\_\_\_\_

Sinaluvchi: Xayolingizga kelgan birinchi fikrni yozib, gapni tugallashingiz kerak.

Bunday vaziyatda \_\_\_\_\_

Eng osoni \_\_\_\_\_

SHunga qaramay \_\_\_\_\_

Borgan sayin \_\_\_\_\_

Unga nisbatan \_\_\_\_\_

Har qaysi \_\_\_\_\_

Attang \_\_\_\_\_

Natijada \_\_\_\_\_

Agar \_\_\_\_\_

Bir necha yil avval \_\_\_\_\_

Eng muhimi \_\_\_\_\_

Aslini olganda \_\_\_\_\_

Faqat \_\_\_\_\_

Haqiqiy muammo shundaki \_\_\_\_\_

Baribir \_\_\_\_\_

SHunday kun keladiki \_\_\_\_\_

Eng katta \_\_\_\_\_

Hech qachon \_\_\_\_\_  
 Bunga \_\_\_\_\_  
 Ilojsiz holatda \_\_\_\_\_  
 Muhimi shundaki \_\_\_\_\_  
 Ba'zan \_\_\_\_\_  
 Tahminan \_\_\_\_\_  
 O'tmishda \_\_\_\_\_  
 Gap shundaki \_\_\_\_\_  
 Ayni paytda \_\_\_\_\_  
 YAxshisi \_\_\_\_\_  
 Hammasini e'tiborga olib \_\_\_\_\_  
 Agar bunday bo'Imaganda \_\_\_\_\_  
 Doim \_\_\_\_\_  
 Imkoniyati bo'lsa \_\_\_\_\_  
 Bu holda \_\_\_\_\_  
 Odatda \_\_\_\_\_  
 Hatto, shunday bo'lsa ham \_\_\_\_\_  
 Hozirgacha \_\_\_\_\_  
 SHart – sharoitlar bo'lsa \_\_\_\_\_  
 Eng qizig'i \_\_\_\_\_  
 Qanday qilib \_\_\_\_\_  
 YAqin kunlardan buyon \_\_\_\_\_  
 Faqat shundan keyin \_\_\_\_\_

Natijalar tahlili:

Egosentrizm indeksini aniqlashga yo'naltiriladi. Egosentrizm indeksini topish uchun tekshiriluvchi nechta gapda birlikdagi birinchi shaxs kishilik olmoshi va uning har xil shakllari – «men», «mening», «meni», «menga» va boshqalar qo'llangani hisoblab chiqiladi.

SHuningdek, tegishli olmoshlar ishlatilmagan, ammo aniq nazarda tutilgan gaplar, oxirigacha yetkazilmagan, lekin tegishli olmoshni o'z ichiga olgan gaplar miqdori hisoblanadi. Nechta gapda yuqorida ta'kidlangan holatlar qayd etilsa, ularning miqdori egosentrizm indeksi sifatida qabul qilinadi.

Eslatma: № 1: 10 tadan ortiq gapni yakunlamagan tekshiriluvchining javoblari tahlil etilmaydi.

Natijalarni baholash quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

Sinf	Jins	Past	O'rta	YUqori
5 – sinf	o'g'il bolalar	0 – 11	12 – 27	28 – 40

	qiz bolalar	0 – 10	11 – 26	27 – 40
6 – sınıf	o'g'il bolalar	0 – 13	14 – 28	29 – 40
	qiz bolalar	0 – 14	15 – 26	27 – 40
7 – sınıf	o'g'il bolalar	0 – 12	13 – 27	28 – 40
	qiz bolalar	0 – 13	14 – 25	26 – 40
8 – sınıf	o'g'il bolalar	0 – 8	9 – 22	23 – 40
	qiz bolalar	0 – 9	10 – 23	24 – 40
9 – sınıf	o'g'il bolalar	0 – 7	8 – 20	21 – 40
	qiz bolalar	0 – 8	9 – 23	24 – 40
10 – sınıf	o'g'il bolalar	0 – 7	8 – 20	21 – 40
	qiz bolalar	0 – 7	8 – 21	22 – 40

Eslatma: № 2: diagnostika jarayonida tekshiriluvchiga ko'rsatmada tashqari nimanidir tushuntirish, uning gaplariga nisbatan baho berish yoki munosabat bildirish hamda tadqiqotning haqiqiy maqsadlarini ma'lum qilish qat'iy man etiladi.

## 7. “Yolg'izlik” diagnostik so'rovnomasi (S.G. Korchagina)

Testdan maqsad: yolg'izlikni his qilishning chuqurligini diagnostika qilish.

Test yo'rionomasi: Sizga quyida 12 ta savol va ularga mos 4 ta javob taqdim etiladi. Javoblardan o'zingizga mos tushadigan birini tanlang va belgilang.

T/r	Savollar	Javob variantlari			
		Har doim	Ko'pincha	Ba'zida	Hech qachon
1.	Atrofdagilar (do'stlaringiz) tomonidan tushunilmagan vaziyatlarga tushib turasizmi?				
2.	Sizda, haqiqatda hech kimga kerak emasligingiz to'g'risidagi fikrlar paydo bo'ladimi?				
3.	Butun olamda yolg'izdek his qiladigan vaziyatlar bo'ladimi?				
4.	Do'stona muloqot jarayonida ham qandaydir yetishmovchilik his qilasizmi?				
5.	Sizda, butun umrga yo'qotilgan, qaytib kelmaydigan narsalarga nisbatan kuchli sog'inch hissini paydo bo'lib turadimi?				
6.	Sof muloqot imkoniyatini				

	bermaydigan yuzaki ijtimoiy aloqalardan to'yaningizni his qilasizmi?			
7.	Sizda boshqa odamlarga nisbatan tobelik hissi mavjudmi?			
8.	Hozirgi kunda boshqa odamlarning dardiga sof dardkashlik ko'rsata olasizmi?			
9.	Odamlarga hamdarligingizni, ularni tushunayotganingizni ko'rsatib bera olasizmi?			
10.	Boshqa odamlarning yutuq va omadlari o'z omadsizligingizdan achinish, o'zingizni kansitilgandek his qilishni paydo qilishi mumkinmi?			
11.	Murakkab hayotiy vaziyatlarni xal qilishda o'z mustaqilligingizni namoyish qila olasizmi?			
12.	Hayotiy vazifalarni mustaqil hal qilish uchun yetarlicha imkoniyatingiz borligini his qilasizmi?			

Test natijalarining tahlili va interpritasiysi

So'rovnoma tahlili juda oddiy. Sinaluvchilarning javoblariga quyidagicha ballar qo'yiladi: har doim-4, ko'pincha-3, ba'zida-2, hech qachon-1.

YOlg'izliki namoyon bo'lish darajasi quyidagicha:

12-16 ball – hozirgi vaqtida yolg'izlik hissi mavjud emas;

17-27 ball – yolg'izlikning chuqur bo'lмаган darajasi;

28-38 ball – aktual yolg'izlikni chuqur his qilinishi;

39-48 ball – yolg'izlikni juda chuqur his qilinishi, bu holatga mukassidan ketish.

## **8. T.Elersning shaxs muvaffaqiyatga erishish motivasiyasini o'rganish metodikasi**

Quyida sizga 41 ta savol beriladi. Siz ularga "HA" yoki "YO'Q" deb javob bering.

Ikkita variantdan bittasini tanlash imkoniyati bo'lganda, noma'lum vaqtga cho'zib yotgandan ko'ra, bittasini tezroq bajarishga kirishgan ma'qul.

Men 100 foiz ishni yaxshi bajara olishimga ishonchim bo'lmasa, juda tez

achchiqlanaman.

Men ishlayotgan chog'imda shunday bo'ladiki, men butun vujudim bilan unga kirishib ketgandayman.

Muammoli vaziyat paydo bo'lganda, men ohirgilardan bo'lib, qaror qabul qilaman.

Agar ikki kun qatorasiga ishsiz qolsam, men o'zimni qo'yyarga joy topa olmayman.

Ba'zi kunlari mening yutuqlarimni o'rtachadan past deb baholash mumkin.

Men o'zimga boshqalarga nisbatan talabchanroqman.

Men boshqalarga nisbatan mehribonroq va g'amho'rroqman.

Men qiyin bir ishdan bosh tortganidan so'ng, ko'pincha afsuslanib, o'zimni koyiyman, chunki bilamanki, agar shu ishni qilganimda, albatta, muvaffaqiyatga erishgan bo'lardim.

Ish jarayonida biroz hordiq chiqarishlariga muhtoj bo'laman.

Tirishqoqlik – mendagi asosiy sifat emas.

Mening ishdagi yutuqlarim har doim ham bir xil bo'lavermaydi.

Meni o'zim shug'ullanayotgan ishdan boshqa ishlar o'ziga rom etadi.

Men maqtashganidan ko'ra, tanbeh berishsa, kirishibroq ishlayman.

Men hamkasblarim meni ishchan odam deyishlarini bilaman.

Paydo bo'lgan to'siqlar qarorlarimni qat'iyroq qiladi.

Mening izzat – nafsimga tegish oson.

Ko'tarinkiliksiz ishlagan chog'larimni tezda sezishadi.

Ishni bajarish jarayonida men boshqalarning yordamiga tayanmayman.

Ba'zan men hozir bajarishim lozim bo'lgan ishni keyinga qoldiraman.

Odam faqat o'ziga ishonishi kerak.

Hayotda puldan ham muhimroq bo'lgan narsalar kam.

Men muhim ishni bajarishim kerak bo'lgan paytlarda boshqa hech narsani o'ylamayman.

Men ko'pchilikka nisbatan izzattalab emasman.

Ta'til nihoyasida men odatda ishga qaytishimni o'ylab, quvonaman.

Ishlagim kelgan paytlarda, men ishni boshqalarga nisbatan yaxshiroq va sifatliroq bajaraman.

Men tirishib, sidqidildan ishlaydigan odamlar bilan tez kirishib ketaman.

Men bekorchilik paytlarimda, o'zimni behalovat his qilaman.

Men boshqalarga nisbatan ko'proq mas'uliyatli ishlarni bajaraman.

Men o'zim qaror qabul qilishim kerak bo'lganda, buni sitqidildan yaxshi bajarishga intilaman.

Mening do'stlarim meni ba'zan dangasa, deb koyishadi.

Mening yutuqlarim ma'lum ma'noda kasbdoshlarimga ham bog'liq.

Raxbarning ra'yini qaytarish besamar ish.  
Ba'zan qanday ishni bajarayotganligingni ham bilmaysan.  
Ishim yurishmaganda, men betoqat bo'lib qolaman.  
Men odatda o'z yutuqlarimga kam ahamiyat beraman.  
Boshqalar bilan hamkorlikda ishlaganimda, mening ishim boshqalarnikidanr samaraliroq bo'ladi.

Ko'pincha boshlab qo'ygan ishlarimni oxiriga yetkazmaganman.  
Men ish bilan unchalik band bo'limgan odamlarga havas qilaman.  
Men xukmronlikka va amalga intilgan odamlarga havas qilmayman.  
Men o'zimning haqligimga ishonsam, haqiqatni isbot qilish uchun har narsaga borishga tayyorman.

## Kalit:

Quyidagi savollarga “HA” deb javob bergan bo'lsa, 1 balldan qo'yiladi – 2, 3, 4, 5, 7, 8, 9, 10, 14, 15, 16, 17, 21, 22, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 32, 37, 41- savollarga.

Quyidagi savollarga “YO'Q” deb javob bergan bo'lsa, ham 1 balldan qo'yiladi – 6, 13, 18, 20, 24, 31, 36, 38, 39- savollarga.

CHalg'ituvchi savollarga ball qo'yilmaydi – 1, 11, 12, 19, 23, 33, 34, 35, 40-savollarga.

To'plangan ballar hisoblab chiqiladi.

Nataja:

1 balldan 10 ballgacha: Sizdagi muvaffaqiyatga erishish motivasiyasi past;

11 balladan 16 ballgacha: Sizdagi muvaffaqiyatga erishish motivasiyasi o'rtacha;

17 balldan 20 ballgacha: Sizdagi muvaffaqiyatga erishish motivasiya darajasi anchagini yuqori;

21 balldan 32 ballgacha: YUtuqlarga nisbatan motivasiya Sizda juda yuqori.

## Javob varaqasi

## F.I.SH.

guruh sana


## 9.“Uy-daraxt-odam”

Ushbu metodika kattalar bilan bir qatorda bolalarni ham o'rganish uchun mo'ljallangan bo'lib, uni individual va guruhiy tarzda o'tkazish mumkin. Metodikaning mohiyati quyidagicha: tekshiriluvchiga uy, daraxt va inson rasmini chizish taklif qilinadi. So'ng ishlab chiqilgan reja bo'yicha suhbat o'tkaziladi.

R.Berks ushbu testni qo'llashda bir rasmida daraxt, uy va insonni tasvirlashni taklif qiladi. Bunda uy, daraxt va insonning o'zaro ta'siri ko'rish obrazini tashkil qiladi, deb hisoblanadi. Agar rasmni xarakatga keltirsak, u haqiqatan ham bizning hayotimizda sodir bo'layotganligini sezish mumkin.

Uy, daraxt va inson rasmining chizilish tartibi testni tavsiflash usuli sifatida qaraladi. Agar daraxt rasmi birinchi bo'lib chizilgan bo'lsa, bunda inson uchun asosiy bo'lgan narsa - hayotiy energiya (quvvat), agar uy birinchi navbatda chizilgan bo'lsa, birinchi o'rinda inson uchun xavfsizlik, muvaffaqiyat yoki bu tushunchalarining rad etilishi turadi.

Eski, qulab tushayotgan uy – ba'zida sub'ekt o'ziga bo'lgan munosabatni shu tarzda ifodalashi mumkin.

Uzoqdagi uy – rad qilinish tuyg'usi.

YAqindagi uy – ochiqlik, iliqlik va mehmondo'stlik hissi. Uyning o'rniga uning plani rasmi chizilgan bo'lsa – jiddiy nizo. Turli qurilmalar – uyning haqiqiy sohibiga nisbatan agressiyaning mavjudligi. Devorga ko'tarilayotgan zina (eshiksiz) – voqelikni to'g'ri baholashga zarar yetkazuvchi nizoli vaziyatning aks ettirilishi.

Devorlar

Orqa devorning odatdagidek bo'lмаган tarzda tasvirlanishi o'z-o'zininazorat qilishga ongli ravishda harakat qilish, kelishuvlarga moslashish, shu bilan birga kuchli dushmanchilikka moyillik.

Boshqa detallarga nisbatan orqa devor konturlarining sezilarlitarzda qalinroq, yorqinroq chizilishi-sub'ekt voqelik bilan aloqani saqlab qolishga intiladi.

Devor va uning asosi mavjud emasligi voqelik bilan aloqaning zaifligi. yevor asosi konturlarining bo'rttirib ko'rsatilishi - sub'ekttashvish, qiyinchilikni his qiladi va nizolarni bartaraf qilishga intiladi.

Gorizontal o'lchovlari bo'rttirilgan devor – vaqt ni noto'g'ri orientirovka qilish (yo o'tmishning, yo keljakning ustunligi), subektning bosimga juda

sezuvchanligi. Devorning yon konturlari juda ingichka va adekvat emasligi – falokat xavfini his qilish; chizik konturlari juda bo'rttirilgan, devorning faqat bir tomoni tasvirlansa va agar bu devor yon tarafi bo'lsa, kelishmovchilik va ajralib qolish kabi jiddiy moyillik mavjud.

Devor aniq - ravshan tasvirlansa – imkon boricha vaziyatga ta'sir qilish, extiyoji anglanmagan mayllar.

Vertikal o'lchamlari bo'rtilagan devor – subektning voqelik bilan aloqalari unchalik ko'p emas, hayolan huzurlanishga intiladi.

### Eshiklar

Eshik mavjud bo'lmasa – sub'ekt boshqalar oldida o'zini namoyon qilishga qiynaladi (ayniqsa oila davrasida). yon tarafdagagi yoki orqadagi eshik – chetlashish, qochish.

Bayramona (tantanavor) eshik – samimiylit, ochiqlikning birinchi belgisi.

Ochiq eshik. Agar turar joy bo'lsa – bu tashqaridan bo'ladigan iliqlikka kuchli ehtiyoj yoki ochiqlikka namoyishkorona intilish.

YOn tarafdagagi eshik – voqelikni qabul qilmaslik, ajralib qolishlik.

Eshiklar juda katta bo'lsa – boshqalarga haddan tashqari bog'liqlik yoki o'zining muloqatchanligi bilan boshqalarni hayratga solishga intilish.

Eshiklar juda kichkina bo'lsa - o'zining "Men"iga boshqalarni kiritmaslik xoxishi, ijtimoiy vaziyatlarga mos kelmaslik, noadekvatlik hissi. Katta qulflı eshik – dushmanchilik, vahimachilik, pinhoniylit, himoyalanish tendensiyasi.

qalin tutun – sezilarli darajadagi ichki zo'riqish.

qalin bo'limgan tutun oqimi – uyda emosionallik yetishmasligi hissi.

### Deraza

Deraza – birinchi qavat oxirida chizilgan bo'lsa, bu shaxslararo munosabatlardan nafratlanish va voqelikdan ajralib qolishga intilishni bildiradi. Deraza oxirigacha ochilgan va ko'p bo'lsa aloqa o'rnatishga tayyorlik, pardalarning bo'lmasligi o'z hissiyotlarini namoyish qilishga intilishning mavjud emasligi.

Deraza qattiq yopiq bo'lsa muhit bilan o'zaro ta'sir o'rnatishdan tashvishlanish.

Oynasi yo'q deraza dushmanchilik, ajralib qolishlik, pastki qavatda oyna yo'q, lekin yuqori qavatda mavjud bo'lsa, haqiqiy hayot bilan hayoliy hayot o'rtasidagi oraliq.

### Tom

Tom – hayol sohasi hisoblanadi. Tom va mo'rini shamol uchirib yuborgan qilib tasvirlansa, sub'ektning hissiyotlarini ifodalaydi. (o'zining iroda kuchiga qaramay, ustun turuvchi hissiyotlar).

CHizilgan rasmga umuman mos tushmagan qalin chizilgan tom odatda tashvishlanish, shu bilan birga keladigan lazzatlanish manbai sifatida chiqadigan fantaziya. CHekkalari ingichka chiziqli tom – fantaziyanı nazorat qilishning

kuchsizligi.

CHekkalari qalin chiziqli tom-fantaziyani jilovlash, o'zini nazorat qilishga haddan tashqari urinish.

### Xona

Assosiasiyalar: xonada yashovchi odam va xonadagi interpersonal munosabatlar tufayli hosil bo'lishi hamda (pozitiv) ijobiy yoki (negativ) salbiy emosional tusga ega bo'lishi mumkin.

Varaqqa sig'magan holda tasvirlangan xona- sub'ektning xonadagi noxush assosiasiyalar yoki unda yashovchilar bilan yaxshi munosabatlar yo'qligi sababli muayyan xonalar rasmini tasvirlashni istamasligi. Sub'ektning yaqin xonani tanlashi – badgumonlik.

### Vannaxona

Vannaxona sanitarlik vazifasini bajaradi. Agar vannaxona katta tasvirlangan bo'lsa bu vazifalarni buzilishi to'g'risida gapirish mumkin.

### Quvur

Quvurning mavjud emasligi-sub'ekt uyda psixologik iliqlikning yetishmasligini xis qiladi. quvur deyarli ko'rinnmasa, emosional ta'sirotlarni istamaslik.

Tomga nisbatan quvur qiyshiq chizilgan bo'lsa, bola uchun norma; kattalarda kuzatilsa bu kuchli agressiya, suv oqadigan quvur kuchli himoya va odatda badgumonlik.

Vodoprovod quvuri – kuchli himoyalanish ustakovkasi va odatda yuqori darajadagi badgumonlik.

### Qo'shimchalar

Tiniq "oynali" eshik hammani o'ziga qaratishni bildiradi. o'zini namoyish qilish istagi, biroq vizual aloqa vositasi bilan cheklangan holda.

### Daraxtlar

Ko'pincha turli xil kishilarni anglatadi. Agar ular go'yoki uyni "bekitib" turgan bo'lsa, ota-onalar ustun bo'lganda, kuchli bog'liqlik ehtiyoji mavjudligidan dalolat beradi.

### Butalar

Ba'zida odamlarni anglatadi. Agar ular uyni qalin o'rab turgan bo'lsalar, o'zini himoya to'siqlari bilan kuchli o'rab olish istagi mavjud bo'lishi mumkin.

Butalar yo'lning ikkala yoqasida tartibsiz joylashgan bo'lsa-voqelik chegarasida biroz tashvishlanish va uni ongli ravishda nazorat qilishga intilish mavjudligini ko'rsatadi.

Yo'lka proporsiyalari yaxshi, yengil chizilgan bo'lsa, individ boshqalar bilan aloqada o'z-o'zini e'tirof etilishiga va o'z-o'zini nazorat qilishga egaligini ko'rsatadi. Uzun yo'lka - ancha adekvat ijtimoiylashuv ehtiyoji bilan birga keladigan kuchsiz

ochiqlik.

Juda keng boshlanib, uyga yetgach, torayib boruvchi yo'lka - yolg'izlikka bo'lgan xohishni niqoblashga intilish.

Quyosh hurmatga ega bo'lган timsol bo'lib ko'pincha iliqlik va kuch manbai sifatida idrok qilinadi.

Ob-havo - (qanday ob-havo tasvirlanganligi) sub'ektning muhit bilan bog'lik kechinmalarini aks ettiradi. qanchalik ob-havo yaxshi tasvirlangan bo'lsa, sub'ekt shunchalik muhitni dushmanchilik sifatida idrok etadi.

Rang.

YAshil rang – tom uchun, jigarrang - devor uchun, sariq-agar uy ichidagi yorug'likni aks ettirish uchun qo'llansa, tun yoki uning yaqinlashayotganligi aks ettirilsa, su'ektning quyidagi hissiyotlarini ifodalaydi:

muhitning unga nisbatan agressiv dushmanligi;

uning harakatlarining yashiringan hamda bo'lishi.

Qo'llanilgan ranglarning miqdori. YAxshi moslashgan, biroq tortinchoq, emosional sub'ekt odatda ikkitadan kam yoki beshtadan ko'p rang ishlatmaydi.

Uyni 7-8 rangga bo'yovchi sub'ekt juda labil hisoblanadi. Faqat bitta rang qo'llanilsa, bu sub'ektning emosional qo'zg'alishdan qo'rqishini bildiradi.

Rangni tanlash – Sub'ekt rangni qanchalik uzoq, ishonchsizlik va qiyinlik bilan tanlasa, shaxsdagi buzilishlar ehtimoli shunchalik ko'p bo'ladi.

Qora rang – tortinchoqlik, cho'chishlik.

YAshil rang – xavsizlik hissiga ehtiyoj, o'zini xavfdan asrash. Bunda daraxt barglari va uy tomi yashil rangda bo'lishi unchalik ahamiyatga ega emas.

Qo'ng'ir rang – sezuvchanlik va dushmanlik kombinasiyasi.

SHaffof rang – hokimiyatga kuchli intilish ehtiyoji.

Qizil rang – kuchli sezuvchanlik. Atrofdagilardan iliqlik sezish extiyoji.

Sariq rang – kuchli dushmanchilikning belgisi.

Umumiy ko'rinish

Rasm varaqning chetiga joylashgan bo'lsa – xavfsirash, ishonchsizlik hissi. Ko'pincha bunday joylashish muayyan vaqtini bildiradi:

a) o'ng tomon- kelajak, chap-o'tmish;

b) xona yoki uda doimiy yashovchilarni oldindan belgilab qo'yilishi bilan bog'liq.

v) kechinmalar mohiyatini ko'rsatadi: chap tomon-emosional, o'ng tomon-intellektual.

Manzara

Pastdan yuqoriga nazar tashlash - sub'ektning chetga chiqib qolganligi, uyda tan olinmaganlik, rad etilganlik hissi.

Manzara, rasm uzoqdan aks ettirilgan bo'lsa-konvensional jamiyatdan chetga

chiqish istagi, ajralib qolish, rad etilish hissi.

Agar individ uyning bir uchini to'g'ri chizib, boshqa tarafida tom va devorning vertikal chiziqlarini aks ettirsa, kelajakdan cho'chish (o'ng taraf) yoki o'tmishni unutish istagi (chap tomon)ni bildiradi.

Uch yoqlama manzara (sub'ekt 4 ta alohida devor rasmini chizsa) – bu atrofdagilarning o'zi haqidagi fikrlari to'g'risida haddan ortiq qayg'urishni bildiradi.

#### Rasmning joylashishi

Rasm varaqning markazidan tepada joylashgan bo'lsa va u markazga nisbatan katta bo'lsa, u holda:

- sub'ekt o'z maqsadiga erishishda qiyinchilik his qiladi;
- sub'ekt hayolida qoniqish hosil qilishni yoqtiradi; (ichki zo'riqish);
- sub'ekt chetda turishga moyil.

Rasmning varaq o'rtasida joylashishi – rigidlik va himoyasizlik hamda psixik muvozanatni saqlash uchun nazorat qilish ehtiyoji.

Rasmning varaq markazidan pastda joylashishi. Varaq markaziga nisbatan rasm qanchalik pastda joylashgan bo'lsa, shunchalik:

- sub'ekt o'zini noqulay va himoyasiz his qiladi, bu esa unda depressiv kayfiyatni tug'diradi;
- sub'ekt o'zini cheklangandek his qiladi.

Rasm varaqning chap tomonida joylashsa, o'tmishga urg'u berish, impulsivlik.

Rasm varaqning chap burchagida joylashsa – yangi kechinmalardan qochishga moyillik. o'tmishga qochish yoki xayolotga berilish xohishi.

Rasm varaqning o'ng tarafida joylashsa – sub'ekt intellektual sohada huzurlanishga moyil. Xulq-atvor nazorat qilib turiladi. Kelajakka urg'u berish kuzatiladi.

Rasm varaqning chap chekka qismidan tashqariga chiqsa -o'tmishni mustahkamlash va kelajakdan cho'chish. Erkin, ochiq emosional kechinmalar haqida haddan ziyod qayg'urish.

Rasm varaqning o'ng chetidan tashqarida joylashsa, o'tmishdan uzoqlashish uchun kelajakka "qochish" xohishi, ochiq, erkin kechinmalardan qo'rqish. qattiq nazoratni saqlashga intilish.

Varaqning tepa chekka qismidan tashqariga chiqish – sub'ekt haqiqiy hayotda boshdan kechirmaydigan, huzurlanish manbai sifatida chiqadigan fantaziya va tafakkurga yo'nalgan.

"Uy" testi rasmlarini qayta ishslash sxemasi

Ajratib ko'rsatilgan belgi
----------------------------

	Sxematik tasvir
	Detallashtirilgan tasvir
	Metaforli tasvir
	SHahardagi uy
	Qishloqdag'i uy
	Adabiy yoki ertak syujetidan olingan uy
	Derazalarning mavjudligi va ular soni
	Eshiklarning mavjudligi
	Tutun chiqayotgan mo'ri
	Derazalar
	Derazalar o'lchami
	Uyning umumiy o'lchami
	Uy oldida bog'chaning mavjudligi
	Uyda va uy oldida odamlarning mavjudligi
	Qanotning mavjudligi
	Derazalarda pardaning mavjudligi
	O'simliklarning mavjudligi (soni)
	Hayvonlarning mavjudligi
	Peyzajli tasvirning mavjudligi (bulut, quyosh, tog'lar va hokazo)
	1,2,3 intensivlik shkalasi bo'yicha shtrixovkaning mavjudligi
	1,2,3 intensivlik shkalasi bo'yicha chiziqlar qalinligi
	Ochiq eshik
	YOpiq eshik

“INSON”

Bosh – aql (nazorat), xayol sohasi.

Katta bosh – inson faoliyatida tafakkurning ahamiyatiga ongsiz ravishda ishonishni ta'kidlash.

Kichik bosh – aqliy noadekvatlikni boshdan kechirish.

Noaniq chizilgan bosh – tortinchoqlik, uyalish.

Bosh eng oxirida tasvirlansa – shaxslararo nizo.

Boshqa jinsli figuradagi katta bosh – qarama-qarshi boshqa jinsning sohta ustunligi va uning yuksak ijtimoiy avtoriteti.

Bo'yin – nazorat (bosh) va mayl sohasi (tana) o'rtasidagi aloqaning timsoli.

Bo'yin ta'kidlansa – himoyaviy, aqliy nazoratga bo'lgan ehtiyoj.

Bo'yin haddan ziyod katta bo'lsa – tana impulslarini anglash, ularni nazorat qilishga intilish.

Uzun, ingichka bo'yin – tormozlanish, regressiya.

Kalta, qalin bo'yin – o'zining zaifligi va istaklariga yon bosish.

Elka, uning o'lchami – ilohiy kuch belgisi yoki hokimiyatga bo'lgan intilish.

Elka haddan tashqari katta chizilsa – katta kuchni his qilish yoki kuch va hokimiyat to'g'risida juda kam qayg'urish.

Kichkina yelka – o'zining arzimas, ahamiyatsiz ekanligini his qilish.

Elka juda ham qiyshiq bo'lsa - haddan ziyod ehtiyotkorlik, himoya belgisi.

Keng yelka – kuchli tana impulslari.

Gavda – Qiyshiq yoki kvadrat gavda mardlikni ifodalaydi.

Gavda juda ham katta bo'lsa – sub'ektning qondirilmagan, kuchli anglanadigan ehtiyojlarining mavjudligi.

Normal bo'limgan kichik gavda – kam ahamiyatlilik, kamsitilish hissi.

YUz.

YUz tuzilishi o'z ichiga burun, og'iz, quloq, ko'zni oladi. Bular tashqi stimul reseptorlari – voqelik bilan sensor aloqa qilish.

YUz ajratib ko'rsatilsa – o'zining tashqi qiyofasi, boshqalar bilan munosabatlari to'g'risida kuchli qayg'urish.

Baqbaqa (iyak) juda ham ajratib ko'satilsa – ustunlik qilish ehtiyoji.

Baqbaqa juda katta tasvirlancha – his qilinadigan ojizlik va qat'iyatsizlikni kompensasiya qilish.

Quloqlar juda ham ajratib ko'rsatilsa – eshitish gallyusina-siyalari. Bu tanqidga nisbatan sezgir kishilarda uchraydi.

Kichkina quloqlar – tanqidni qabul qilmaslikka intilish.

Ko'zlar yumilgan yoki shlyapa ostiga yashiringan – noxush vizual (ko'rish) ta'surotdan qochishga intilish.

Qavariq ko'zlar – qo'pollik, dag'allik Kichkina ko'zlar – og'irlilikni o'ziga olish.

Uzun kipriklar – o'zini namoyish qilish, boshqalarning havasini keltirishga

moyillik.

Masxaraboz labi-noadekvat hissiyotlar, majburiy ochiq ko'ngillik.

Keng burun – jirkanch ustanovkalar, istehzoli ijtimoiy stereotiplar asosida fikrlash.

Tishlar aniq chizilsa – agressivlik.

Noaniq, xira yuz – tortinchoqlik, qo'rqoqlik.

Niqobga o'xshash yuz – ehtiyojkorlik, pinxoniylilik.

Siyrak kalta qosh – nafrat, jirkanish.

Soch – mardlik, kuch, yetuklik va ularga intilish belgisi.

Qo'llar – atrof muhitga, asosan shaxslararo munosabatlarga moslashish qurolidir.

Keng quloch yoygan qo'llar – harakatlanishga jadal intilish.

Elka yoki kaft qism keng tasvirlansa – impulsivlik, harakatlarni yetarlicha nazorat qilmaslik.

Gavdaga qo'shilmagan, o'zi alohida ikki tarafga qaratib chizilgan qo'l – sub'ekt o'zini nazoratidan chiqib ketgan xatti - harakatlari va hulq - atvorini ba'zida ko'ra olish.

Qo'llar ko'krak ustiga qo'yilgan bo'lsa – dushmanlik, badgumonlik ustanovkasi. qo'llar orqada – kelishuvga (kompromissga) bormaslik, yon bosishni istamaslik (hatto do'stlari bilan ham) hamda tajovvuzkor, dushmanchilik mayllari namoyon bo'lishini nazorat qilishga moyillik.

Uzun va muskulli qo'llar – sub'ekt jismoniy kuch, mardlik epchilikka muhtoj.

Qo'llar haddan ziyod uzun bo'lsa - haddan tashqari ambision intilishlar. qo'llar kuchsiz va egiluvchan – shaxslararo munosa-batlarga yaxshi moslasha olish. Qo'llar tanaga birlashib ketgan – rigidlik.

Qo'llar juda qisqa tasvirlansa – intilish bilan birga noadekvatlik hissinimavjud emasligi.

Qo'llar haddan tashqari katta bo'lsa – ijtimoiy munosabatlarga yaxshiroq moslashishga bo'lgan kuchli ehtiyoj.

Qo'llar mavjud bo'lmasa – intellekt yuqori bo'lishi bilan bir vaqtda noadekvatlik hissi.

Qo'l yoki oyoq chap tarafga og'sa – ijtimoiy rolli nizo.

Erkaklardagi qo'l va oyoqlarning kattaligi - qo'pollik, dag'allik.

Uzun qo'llar – nimagadir erishish hohishi.

Uzun va nimjon qo'llar – bog'lig'lik, g'amxo'rlik, vasiylikka ehtiyoj.

Ikki tarafga yoyilgan, nimadir olayotgan qo'l tasvirlansa – bog'liqlik, muhabbat istagi.

YOn tarafga cho'zilgan qo'l – ijtimoiy aloqalardagi qiyinchiliklar.

Nimjon, kuchsiz qo'llar – erishilgan natijadan qoniqmaslikhissi.

Boksyor qo'lqopiga o'xshash qo'l – siqib chiqarilgan tajavvuzkorlik.

Qo'llar orqada yoki cho'ntakda tasvirlansa – aybdorlik hissi, o'ziga ishonmaslik.

Qo'llar noaniq tasvirlansa – faoliyatda va ijtimoiy munosabatlarda o'ziga ishonchning yetishmasligi.

Katta qo'llar – his qilinadigan zaiflik va aybdorlikning konpensasiyalanishi.

Ayol tasviridagi qo'lning mavjud emasligi – ona obrazi xuddi yaxshi ko'rmaydigan, qo'llab quvvatlanmaydigan, rad qilinadigandek idrok qilinadi.

Barmoqlar uzilib qolsa – siqib chiqarilgan tajavvuzkorlik, odamovilik.

Katta barmoqlar - qo'pollik, dag'allik, tajavvuzkorlik.

Beshtadan ortiq barmoqlar – tajavvuzkorlik, ambisiya.

Kaftsiz barmoq - qo'pollik, dag'allik, tajavvuzkorlik.

Beshtadan kam barmoqlar – bog'liklik, zaiflik.

Uzun barmoqlar ochiq agressiya.

Mushtga yig'ilgan barmoqlar - qo'zg'alochilik, norozilik, qarshilik.

Yo'g'on, mixga o'xshash barmoqlar – dushmanchilik.

Uzun oyoqlar – mustaqillikka kuchli ehtiyoj va unga intilish.

Juda katta oyoq - jismoniy yoki psixologik bo'shashganlik.

Rasm oyoq va tovondan boshlansa – qo'rqoqlik.

Tovon aks ettirilmasa – odamovilik, cho'chish.

Oyoqlar keng ochilgan bo'lsa – bo'ysunmaslik, himoyasizlik.

Oyoqlar har xil o'lchamda - mustaqillikka intilishdagi ambivalentlik.

Oyoqlar mavjud emas – odamovilik, cho'chish.

Oyoqlar bo'rttirib ko'rsatilsa - qo'pollik, dag'allik.

Tovon - harakatchanlik belgisi (shaxslararo munosabatlar). Tovon noprional uzun bo'lsa xavfsizlik ehtiyoji. Mardlikni namoyon qilish ehtiyoji. Tovon noprional kichik bo'lsa – bog'liqlik.

### **Gavda holati (poza)**

YUz qismi ko'rsatilib chizilgan bo'lsa, bu odamovilik tendensiyasini bildiradi.

Stulning chekkasida o'tirgan odam - vaziyatdan chiqib ketishga kuchli intilish, qo'rquv, yolgizlik, gumonsirash.

YUgurib ketayotgan odam - qochish, birovdan bekinish xohishi.

CHap va o'ng tomonga nisbatan proporsiyalari buzilganligi yaqqol ko'rinish turgan inson shaxsiy muvozanatning yo'qligini bildiradi.

Odam ramida muayyan tana qismlari tasvirlamasa - insonni yaxlit holda tan olmasligi.

YUrib ketayotgan inson - yaxshi moslashganlik.

Muvozanatlasmagan, tik turgan figura – bosim.

qo'g'irchoq - yon berishlik, atrofdagilar ustunligini his qilish.

Erkak figurasi o'rniغا robot chizilsa – depersonalizasiya, tashqi nazorat qiluvchi kuchlarni his qilish.

Tayoqchalardan iborat figura – negativizm.

YAlmog'iz kampir figurasi – ayollarga nisbatan ochiqdan-ochiq dushmanchilik.

Masxaraboz, karikatura - o'smirlarga xos bo'lgan to'laqonli emaslikni boshidan kechirish, dushmanchilik.

Fon – yon-atrof tasviri.

Bulutlar - qo'rqinchli tashvish, depressiya.

Devor, yer konturi - himoyasizlik.

SHamolda tasvirlangan inson figurasi – sevgi-muhabbat, iliqlik, bog'liklikka bo'lgan ehtiyoj.

Er chizigi - himoyasizlik. qurol – agressivlik.

### **Qo'shimcha mezonlar**

CHiziqlarni tuzilishi, o'chirib tashlangan detallar, bo'rttirib chizish, shtrixovka - nizo sohasi.

Tugmachalar, kamar, cho'ntaklar – bog'liqlik.

*Kontur, shtrixovka, rasmning joylashishi*

Bukilgan chiziqlar kam, burchaklar ko'p bo'lsa – agressivlik, moslasha olmaslik.

Dumaloq chiziqlar – ayollarga xos noziqlik.

Engil, yorkin, qat'iy chiziqlar kombinasiyasi - qo'pollik, dag'allik.

Aniq ravshan bo'lмаган kontur chizik - qo'rqoqlik.

Ishonchli shtrixlar - qat'iylik, xavfsizlik.

Nozik uzun chiziq - bosim.

Eskizli kontur – tashvish, qo'rqish, cho'chish.

Uzilgan kontur – nizolar sohasi.

Notekis chiziq - dushmanchilik.

Aniq, yorqin chiziq - qo'pollik.

Engil chiziq - energiya yetishmasligi, kam Iayratlilik.

### **SHtrixlar uzunligi**

Agar mijoz qo'zg'aluvchan bo'lsa, shtrix chiziqlar kaltalashadi, agar unday bo'lmasa uzayadi.

To'g'ri shtrixlar – qaysarlik, tirishqoqlik, qat'iylik.

Kalta shtrixlar – impulsiv xatti - harakatlar.

Bir ritmdagi shtrixlar – sezuvchanlik, hamdardlik, afsuslanish.

Qisqa shtrix – tashvish, ishonchsizlik.

Gorizontal shtrixlar – zaiflik, xayolni ta'kidlash.

Noaniq, turli-tuman, o'zgaruvchan shtrix - himoyasizlik, qa'tiyyatsizlik.

Vertikal shtrix – o'jarlik, qat'iylilik, giperaktivlik.

O'ngdan chapga shtrixovka – introversiya, izolyasiya.

CHapdan o'ngga shtrix – motivasiya mavjud.

Odamning o'zidan ketuvchi shtrix – agressiya, ekstraversiya.

O'chirish – tashvishlanish.

Tez-tez o'chirish - qat'iyyatsizlik, o'zidan qoniqmaslik. qayta chizish uchun o'chirish – yaxshi belgi.

O'chirish natijasida rasm buzilsa – kuchli emosional reaksiya (chizilayotgan obe'ktga nisbatan).

Katta rasm – mag'rurlik, o'zini katta tutishga moyillik.

Kichkina figuralar – tashvish, emosional bog'liqlik, diskomfort hissi.

Ingichka konturli juda kichik figura - o'zining to'laqonli emasligi hissi.

Simmetriya yetishmasligi – himoyasizlik.

Rasm varaqning eng chetida bo'lsa – bog'liqlik, o'ziga ishonmaslik.

### **Detallar**

Bu yerda tadqiqotchi sub'ekt shu narsalarga qanchalik qiziqadi, ularni qanday idrok qiladi, ularning ahamiyati sub'ekt uchun qandaylgini bilish juda zarur.

Muhim detallar.

Subekt chizgan rasmda hozir yoki yaqin o'tmishda yuksak intellekt bilan xarakterlanuvchi muhim detallarning mavjud emasligi.

Ortiqcha detallar. o'zini cheklay olmaslik, atrof-muhit to'g'risida kuchli qayg'urish, vaziyatni to'g'rinish ehtiyoji.

Detallarnig ortiqcha takrorlanishi – sub'ekt odatda odamlar bilan to'g'ri aloqa o'rnata olmaydi.

Detallarning yetishmasligi – odamovilik.

### **Binoda orientasiya qilish**

Rasmda tanqid qilish so'ralsa, uni tanqidiy baholay olish qobiliyati – voqelik bilan aloqa yo'qotmaslik ko'rsatkichi.

Topshiriqni qarshiliksiz qabul qilish – ishini yaxshi boshlab turib, so'ng charchab qolish va rasm chizishni to'xtatish.

Rasm tufayli uzr surash - o'ziga ishonchning yetishmasligi.

Rasm chizish davomida tezlik va mahsuldarlikning pasayishi –tez jonga tegishlik.

Rasmning nomi – ekstraversiya. qo'llab-quvvatlanish ehtiyoji, mayda gaplik.

Rasm chap qismini alohida qayd qilinishi – ayol jinsi bilan identifikasiyalash. qiyinchiliklarga qaramay, tirishib rasm chizsa – g'ayratlilik,

Rasm chizishga qarshilik qilsa va undan bosh tortsa – o'zini ko'rsatishni xohlamaslik, o'z muammolarini yashirish.

### **Daraxt**

*K.Kox interpretasiyasi (tavsifi) K.Yungning qarashlari (daraxt – tik turgan odam timsoli) dan kelib chiqadi.*

Ildiz – jamoatchilik, ongizlik.

Poya (tana) – instikt, impuls.

SHox – passivlik yoki hayotga qarshi turish.

Daraxt rasmining tavsifi doimo yadro (ildiz, poya, shox) va bezak elementlari (barg, meva, peyzaj) ni o'z ichiga oladi.

### **Ildiz**

Ildiz poyadan kichik bo'lsa – yashirin narsani ko'rish istagi.

Ildiz poya bilan teng – kuchli qiziquvchanlik.

Ildiz poyadan katta – tashvish keltirish mumkin bo'lgan kuchli qiziquvchanlik.

Ildiz chiziq orqali tasvirlansa – sir tutilayotgan narsaga nisbatan bolalarcha munosabat.

Ikkita chiziq tarzidagi ildiz – real narsani baholashda mulohazalilik.

Simmetriya – o'zini tashqi dunyo bilan kelishgandek qilib ko'rsatishga intilish. Agressivlikni to'xtatishga bo'lgan intilish ifodasi. Ahloqiy muommalarining tormozlanganligi.

### **Barglar shakli**

YUmalоq barg – emosionallik.

SHoxlar pastga qaratilsa – mardlikning so'nishi.

SHoxlar tepaga qaratilsa - tashabbus, hokimiyatga intilish.

Tarvaqaylab ketgan shoxlar - o'z-o'zini tasdiqlash, aloqa o'rnatish izlanishi, atrofga nisbatan sezuvchanlik, shoshma –shosharlik.

Qiyshiq chiziqli barglar – atrofni ochiqchasiga qabul qilish ta'sirchanlik.

Bir rasmida ham ochiq ham yopiq barglar – ob'ektiv izlanuvchanlik.

YOpiq yaproqlar - o'zining ichki dunyosini bolalarcha himoyalash. yopiq quyuq yaproqlar –namoyon bo'lmaydigan agressivlik.

YAproqlarning detallari yaxlit qilib birlashtirilmasa - holatlarni baholashda kam detallardan kelib chiqish.

Poyaning bitta qismidan chiquvchi shoxlar – 7 yoshli bola uchun norma hisoblanadigan himoyalanishning bolalarga xos usuli.

SHoxlar bitta yo'nalishda chizilsa – voqelikdagi yoqimsiz narsalardan kechish.

Qalin shoxlar – voqelikni yaxshi farqlash.

Barglarning qing'ir - qiyshiqligi – ehtiyyotkorlik va pinhoniylik.

To'rsimon barg – yoqimsiz hislardan voz kechish.

Palma – joyni o'zgartirishga intilish.

Majnuntol - g'ayrat va shijoat yetishmasligi.

SHtrixovka – tashvish.

Poya – onaga o'xshash xohishi yoki otaga o'xshash intilishi. Bargni ikkiga ajratib turuvchi chiziq - passivlik, yumshoqlik.

Bir chiziqli poya – narsalarga real qarashni inkor etish.

Ingichka chiziq bilan chizilgan barg - ishonuvchanlik, nozik hissiyot.

Qalin chiziqli poya – aktivlik, mahsuldorlik, qat'iylik.

To'g'ri chiziqli poya – epchillik, chaqqonlik.

Qiyshiq chiziqli poya-faollik tashvish va to'siqlarning aniqmasligi haqidagi fikrlar bilan tormozlangan.

SHoxlar poyadan uzilib qolsa – voqelikdan, haqiqatdan qochish.

Poya yerdan uzilib qolsa–tashqi dunyo bilan aloqalarning yetishmasligi, ma'naviy hayot bilan kundalik hayotning kam bog'langanligi.

Poya yaproqlar bilan bog'lansa – yaxshi rivojlangan intellekt, o'zining ichki dunyosini saqlab turishga intilish.

Pastki qismi ingichka poya – baxtsizlikni his qilish; qo'llab - quvvatlashga intilish.

YAproqning umumiyligi – bog'liqlik, o'ziga ishonchning yetishmasligi, tortinchoqlik.

Bargning uchdan biri – muhitga yaxshi moslashganlik.

Butun yaproq - sezilarli bo'lish xohishi, boshqalarga ishonish.

Barg uzunligi (varaq 8 ta qismga bo'linadi):

1/8 – refleksiya va nazoratning yetishmasligi, 4 yoshli bolaga xos (norma).

1/4 - o'z tajribasini qayta fikrlab ko'rish qobiliyati, o'z harakatlarini tormozlash.

3/8 – yaxshi nazorat va refleksiya.

1/2 – interiorizasiya, umid, xayol.

5/8 – intensiv ma'naviy hayot.

6/8 – intellektual taraqqiyot va ma'naviy qiziqishlar.

7/8 – barg butun varaqni egallasa – orzu–umidlarga berilish.

### Tasvir usuli

O'tkir cho'qqi-xavfdan himoyalanish boshqalarga ta'sir ko'rsatish xohishi; aloqalardagi qiyinchiliklar. To'laqonli emaslik hissi, hokimiyatga intilishni kompensasiyalash istagi; xavfsiz boshpana izlash;

Bitta varaqda bir necha daraxtlar tasvirlansa – bolalarga xos xulq- avtor. Tekshiriluvchi qo'llanmaga amal qilmagan.

## 10. “Mavjud bo'lmagan hayvon”.

Ushbu metodika o'z mazmuniga ko'ra proaktiv metodikalar qatoriga kiradi. Uning yordamida shaxsning muayyan xususiyatlari va psixik holatlari haqida ma'lumot to'plash mumkin. Metodika yo'naltiruvchi xarakterga ega bo'lganligi sababli, u tadqiqot batareyasiga kiruvchi metodikalardan biri sifatida qo'llaniladi. Metodika yordamida;

- o'z-o'ziga baho berish xususiyati; tekshiriluvchinig o'z holatidan qoniqmasligi, atrofdagilar tomonidan yetarlicha tan olinmaslik;
- o'ziga ishonmaslik, qo'rqinch, jur'atsizlik kabi sifatlar;
- insonning faoliyatga yo'nalganligi;
- fikrlash xususiyatlari;
- egosentrizm;
- shaxsning agressivligi;
- xavotirlanish va himoya reaksiyalari;
- shaxsning ijodiy imkoniyatlari kabi jihatlari o'rganish mumkin.

Metodika universal xarakterga ega. Uni turli yoshdagi, turli rivojlanish darajasiga ega bo'lgan sinaluvchilarda o'tkazish mumkin. Bu yerda eng muhimi tadqiqotchi tomonidan rasm va uning detallarini to'g'ri tavsiflashdir.

Metodikani o'tkazish uchun oq yoki sarg'ish (silliq bo'limgan) qog'oz va o'rtacha yumshoqlikdagi qora qalam kerak bo'ladi. Rangli qalamlar, ruchka, flomaster, o'chirgichdan foydalanish mumkin emas.

Ko'rsatma: "Mavjud bo'limgan hayvonni o'ylab topib, uning rasmini chizing va nom qo'ying".

Metodikani individual tarzda o'tkazish tavsiya qilinadi. Uni o'tkazish davomiyligi chegaralanmagan.

#### Rasm elementlari va ularning tavsiflanishi

Normada rasm vertikal qo'yilgan varaqning o'rtasida joylashgan bo'ladi. Agar rasm varaqning yuqori chekkasiga yaqin holatda bo'lsa, bu o'ziga yuqori baho berish, jamiyatda egallagan mavqeidan norozilik, atrofdagilar tomonidan yetarlicha tan olinmaslik, lavozimga ko'tarilish va tan olinishga nisbatan e'tiroz, o'z-o'zini tasdiqlashga intilish belgisi hisoblanadi.

Agar rasm varaqning quyi qismida joylashgan bo'lsa, buni o'ziga nisbatan ishonchsizlik, o'ziga past baho berish, qat'iyatsizlik, tushkunlik sifatida; jamoada biror mavqeni egallashga intilmaslik; tan olinish hamda o'z-o'zini e'tirof etish mavjud emasligi sifatida baholash mumkin.

#### **Figuraning markaziy qismi tahlili (bosh yoki uning o'rnini bosuvchi qism)**

Agar bosh o'ngga qaragan bo'lsa, faoliyatga bo'lgan barqaror intilish, harakatchanlikni bildiradi. Bunda rejorashtirilgan, o'ylangan barcha fikrlar amalga

oshiriladi yoki garchi oxirigacha yetkazilmasada uni amalga oshirishga kirishiladi.

Bosh chap tarafga qaratib chizilgan bo'lsa, refleksiya, o'zini boshqalar qanday idrok qilishlari haqida o'ylash, fikrlashga moyillik. Bunday sinaluvchilar harakat kishilari emas, ular o'ylaganlarining bir qisminigina amalga oshiradilar. Ba'zida bu shaxsning faol harakat qilishdan cho'chishi, qat'iyatsizlik sifatida qaraladi (biroq buni boshqa yo'llar orqali tekshirish lozim).

“Anfas” holati, ya'ni bosh rasm chizayotgan shaxs tomonga qarata chizilgan bo'lsa, bu holat egosentrizm sifatida talqin etiladi.

Agar bosh qismda sezgi organlariga mos detallar aks ettirilsa, ya'ni qulqoq, og'iz, ko'z – bular axborot olishga qiziquvchanlik, atrofdagilarning o'zi haqidagi fikrlariga ahamiyat berishlik, deb qaraladi.

Qisman ochiq og'iz til bilan uyg'unlashgan holda biroq lablar aniq chizilmagan holda tasvirlansa, kuchli nutqiy faollik (haddan ziyod ko'p gapirish) sifatida, lablar aniq chizilsa, sezgirlik sifatida baholanadi.

Til va lablarsiz, ayniqsa qattiq botirib chizilgan ochiq og'izqo'rqinch va tashvish, ishonchsizlikning oson yuzaga kelishidan; tishlar bilan tasvirlangan og'iz – verbal agressiya, ko'pchilik hollarda himoyaviy agressiya (shaxsga qaratilgan salbiy murojatga nisbatan qo'pollik qilish, g'ijinish, so'kinish kabilar) dan darak beradi.

SHuni ta'kidlash lozimki, bolalar va o'smirlar uchun og'izni dumaloq shaklda tasvirlash xosdir. Bu esa sinaluvchidagi qo'rqinch va xavotirlanish holatlarini bildiradi.

Rasmida tasvirlangan ko'zlarga alohida ahamiyat berish zarur. Agar ko'z qorachig'i alohida urg'u bilan chizilsa – bu insonga xos bo'lgan qo'rquv kechinmasining belgisi sanaladi. Bunda kipriklarning bor yoki yo'qligiga ham ahamiyat berish zarur. Kipriklar – xulq-atvorning namoyishkorona – jazava usuli.

Erkaklar rasmlarida kipriklar tasvirlansa, ularda ayollar xarakteriga xos sifatlar mavjudligidan darakdir. SHuningdek, kipriklar sinaluvchining atrofdagilarni o'z tashqi chiroyi, kiyinish uslubi bilan lol qoldirishga intilishi, bu jihatlarga katta e'tibor bilan qarashini bildiradi.

Agar rasmning bosh qismi butun figura o'lchamiga nisbatan katta bo'lsa, sinaluvchi o'zidagi va atrofdagi kishilardagi fikrlash, erudisiyani qadrlashidan darak beradi.

Ba'zi hollarda boshda qo'shimcha detallar, masalan, shox tasvirlanishi mumkin. SHoxlar - himoya va agressiya timsoli bo'lib, boshqa belgilar (tirnoq, dag'al jun, igna) bilan birgalikda tasvirlansa, bu tajovuzkor xarakter, spontan yoki himoyaviy agressiya ekanligini bildiradi. hayvondagi patlar - o'zini bezab ko'rsatish, o'zini oqlash, namoyish qilishga moyillik bo'lsa, yol, jun va shunga o'xshash soch turmaklari - hissiyot, o'z jinsini ta'kidlash, o'zining seksual roliga e'tiborni qaratish belgisi hisoblanadi.

## **Figuraning tayanch qismlari tahlili (oyoqlar, panja, ba'zida postament)**

Bunda asosiy e'tibor bu qismning butun figura va shakl o'lchamlari nisbatiga, oyoq qismining tana bilan qanday birlashishiga, oyoqlar hamda panjalarning qaysi tomonga yo'naltirilganligiga qaratilishi zarur.

Agar oyoqlar tana bilan aniq, puxta biriktirilsa, bu qaror qabul qilishning asosliligi, o'ylanganligi, rasionallik belgisi; agar birlashtirish pala-partish zaif bo'lsa, yoki umuman birlashmagan bo'lsa yoki oyoq, asos umuman bo'lmasa – bu yuzaki fikrlash, xulosa chiqarishga yengil-elpi qarash, ba'zida qaror qabul qilishning impulsivligidan darak beradi.

Oyoq, panja shakllarining bir xilligi va bir tomonga yo'nalghanligi - qaror qabul qilishning konformligi (mustaqil emasligi), oddiyligi, standartligi hisoblanadi. Bu detallarning shakli va holatidagi har xillik, aksincha, fikr va ustanovkalarning o'ziga xosligi, mustaqilligi, ba'zida ijodiylik belgisi.

## **Figuraning yuqorisida joylashgan qismlar tahlili**

Qanotlar, qisqichlar, pat, jingalak soch, bantik kabilar - o'ziga ishonch, qiziquvchanlik, atrofdagilarning ishlarida iloji boricha ko'proq ishtirot etish, o'z faoliyatiga berilib ketish belgisi. Bezozchi detallar – namoyishkorlik, atrofdagilar e'tiborini o'ziga qaratishga moyillikdan darak beradi.

Dumlar – sinaluvchining o'z xatti-harakati, qaror va xulosalariga munosabatini bildiradi.

Agar dum qog'ozda o'ngga qarata chizilsa, bu sinaluvchining o'z harakati va hulq-atvoriga munosabat, chapga qaragan bo'lsa, bu o'z fikr, qarorlari, boy berilgan imkoniyatlariga, qat'iyatsizligiga munosabatni aks ettiradi.

Bu munosabatning ijobiy yoki salbiy xarakteri dumning yuqoriga (ishonch va tetiklik) yoki pastga (o'zidan qoniqmaslik, o'zining haqligidan shubhalanish, aytgan gaplari, qilgan ishlaridan afsuslanish) qaratilishida ifodalanadi. Bunda bir necha, ba'zan takrorlanuvchi bo'g'inlardan tashkil topuvchi, ayniqsa haddan ziyod qalin, uzun va tarvaqaylab ketgan dumga e'tibor berish lozim.

Figura konturlari.

Bo'rtib chiqishlar (arqon, igna tipidagi), kontur chiziqlarining bosib, qalin chizilishi mavjudligi yoki yo'qligiga qarab tahlil qilinadi. U atrofdagilardan himoyalanish belgisi hisoblanadi.

Agar bo'rtib chiqishlar o'tkir burchaklar bilan bajarilsa – tajovuzkor himoya; agar kontur chizig'i "bo'yab", qora qilib chizilsa - qo'rqinch va tashvishlanish; agar qalqon qo'yilsa va chiziqlar ikkitadan bo'lsa – (xavotirlanish) cho'chish va shubhalanish sifatida tahlil qilinadi.

Fazoviy joylashuviga qarab bunday himoyaning yo'nalishi aniqlanadi:

figuraning yuqori konturi - o'ziga nisbatan yoshi kattalar, ota-onalar, o'qituvchilar, boshliqlar, rahbarlar, ya'ni ta'qiq, zo'rliklarni amalga oshiruvchi shaxslarga nisbatan; pastki kontur - o'zidan yosh jihatdan kichkinalar, qo'l ostidagilarning masharalashi, qabul qilmaslik, ular o'rtasida obro'sining yo'qligi; yon tarafagi konturlar – aniq bo'limgan xavotir, har qanday vaziyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xavfga nisbatan o'zini himoya qilishga tayyorlik deb baholanadi.

Agar “himoya” elementlari kontur ichida joylashsa, ya'ni chizilgan hayvon korpusida bo'lsa va ular o'ng tarafga yaqin tursa, bu real faoliyat jarayonidagi hamda chap tarafda bo'lsa – ko'proq o'z fikr, e'tiqod didiga nisbatan himoya sifatida talqin qilinadi.

### Umumiy energiya.

Umumiy energiyani baholash o'ylab topilgan hayvon haqida tasavvur hosil qilish uchun ishlatilgan detallar, tana, bosh, dum, qanot miqdoriga qarab amalga oshiriladi.

Tarkibiy qismlar va elementlar (eng zarurlaridan tashqari) qanchalik ko'p bo'lsa, energiya shunchalik ko'p hisoblanadi. Lekin buning aksi bo'lsa, bu energiyani tejash, organizmning astenikligini, o'tkir somatik kasallikkardan dalolat beradi. Bu belgilarni chiziq xarakteri – zaif - to'rsimon chiziqlar, qalamni bosmasdan, qog'oz ustida shunchaki yurgizish orqali tasdiqlashi mumkin.

CHiziqlar qalin va bosib chizilgan bo'lsa, bu energiya tarzida emas, balki xavotirlanish sifatida baholanadi. Bunda ayniqsa, qattiq bosib chizilgan, hattoki varaqning orqa tarafidan ko'rinish turgan chiziqlarga e'tibor qaratilishi lozim.

Bu ya'ni rasm chizayotgan qo'l muskullarining yuqori tonusi – kuchli xavotirlanishdan darak beradi. SHu bilan birga rasmdagi qaysi detal, qaysi timsol shunday aks ettirilganligiga diqqat qilish zarur, chunki ular yordamida xavotirlanish nima bilan bog'langanligini aniqlash mumkin.

Mazmuni va mavzusi jihatidan hayvonlar xavf soluvchi, neytral turlarga ajratilishi mumkin (masalan arslon, begemot, bo'ri yoki qushlar, chumoli va olmaxon, it, mushuk kabilar) bu holda chizilgan hayvonlar rasmi – rasm chizayotgan shaxs namoyondasi; o'zini rasmdagi hayvon bilan identifikasiyalash; o'z shaxsi va “Men”iga munosabat, o'zining mavqeい haqidagi tasavvurlar sifatida baholanadi.

Insonga o'xshatib chizilgan ikki oyoq, odamlarga o'xshatib kiyintirish, - hayvon yuzi odamnikiga o'xshash qilib, oyoq yoki panja qo'l sifatida tasvirlansa – bu infantillik, emosional jihatdan yetuk emaslikdan dalolatdir.

Agressivlik darajasi – rasmdagi burchaklar xarakteri, miqdori va joylashuvi orqali ifodalanadi. Bunda burchaklarning tasvirdagi boshqa detallar bilan aloqasi ahamiyatli emas. Ayniqsa – tirnoq, tish, tumshuq kabi agressiya timsollariga e'tibor qaratish zarur.

SHuningdek seksual belgilar, ayniqsa, insonga o'xshash figuradagi ko'krak, yelin va shunga o'xshash elementlarga e'tibor berish lozimki, ular insonning jinsga nisbatan munosabatini bildiradi. Aylana figurasi (ayniqsa ichi bo'sh) ichki dunyoning sirliligi, yopiqligi, odamovilik, atrofdagilarga o'zi haqida ma'lumot berishni istamaslikni ifodalaydi. Bunaqa rasm odatda tahlil qilish uchun yetarli ma'lumot bera olmaydi.

SHu bilan birga "hayvon" tanasiga mexanik qismlar o'rnatilishiga ham e'tibor berish talab qilinadi. Masalan, hayvon oyoqlari o'rniga traktor yoki tank zanjirini chizish, 3 ta oyoq; bosh qismiga vint, ko'z o'rniga elektr lampochkasi, tanaga turli klavish, antennalar o'rnatish ko'proq shizofreniya bilan kasallanganlarda kuzatiladi.

Insonning ijodiy imkoniyatlari odatda figuradagi elementlarning o'ziga xosligi, uning murakkab tuzilishga egaligi bilan belgilanadi. "Tayyor", mavjud hayvonlarning elementlaridan tashkil topgan rasm, masalan, qanotli mushuk, patli baliq, panjali it – ijodiylikning mavjud emasligi sifatida talqin qilinadi. Figurani qurishda tayyor qismlardan emas, balki turli elementlardan foydalanish originallik ifodasidir.

## 11.“Kaktus”

Kaktus deb nomlanadigan grafik metodika uch yoshdan katta bo'lgan bolalarga mo'ljallangan. Metodika yordamida bolaning emosional sohasini «ko'rish» mumkin, tajovuzkorlik mavjudligini, uni yo'nalishini, intensivligini va boshqalarni aniqlash mumkin.

Eslatmoqchimizki, diagnostikada grafik metodikalar klassik testlar va psixologiyaning asosiy metodlari (kuzatish, suhbat, eksperiment va boshqalar) bilan birgalikda komileks ravishda qo'llaniladi.

Diagnostika usullarini birgalikda qo'llash sinaluvchini hamkorlikda ishlashga yo'naltirish, shaxsning umumiylari xarakteristikalarini olish, ehtimoli bo'lgan muammolarni belgilash va boshqa testlar yordamida olingan natijalarni tasdiqlash imkonini beradi.

Diagnostika o'tkazish jarayonida sinaluvchiga A 4 formatdagi oq qog'oz va oddiy qalam beriladi. SHuningdek, Lyusher testidagi sakkiz xil rangdagi qalamlardan ham foydalanish mumkin, bu holatda natijalarni tahlil qilishda Lyusher testing mos ravishdagi ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

### Ko'rsatma:

«Oq qog'oz varag'ida o'zing qanday tasavvur qilsang, xuddi shunday kaktus rasmini chiz».

Savollar berish va qo'shimcha tushuntirish mumkin emas.

Natijalarni qayta ishlash jarayonida barcha grafik metodlarga xos bo'lgan ma'lumotlar inobatga olinadi: rasmning fazoviy joylashuvi va razmeri (hajmi),

chiziqlar xarakteristikasi, qalamni bosib yozish kuchi.

Bundan tashqari, aynan ushbu metodikaga xos bo'lgan quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi: «kaktus obrazi» xarakteristikasi (yovvoyi, xonaki, sodda, oddiy, har bir detali chizilgan va boshqalar), ignachalar xarakteristikasi (kattaligi, joylashuvi, miqdori).

Rasmida sinaluvchilarning quyidagi sifatlari namoyon bo'lishi mumkin:

Tajovuzkorlik - ignachalarning mavjudligi. Kuchli bo'rtib chiqib turgan, uzun, bir-biriga yaqin joylashgan ignachalar yuqori darajada tajovuzkorlikni ifodalaydi.

Impulsivlik - chiziqlardagi uzilishlar, kuchli bosim bilan chizish;

Egosentrizm, liderlikka intilish - varaqning markazida joylashgan katta rasm.

O'ziga ishonchsizlik, tobelik - varakning quyi qismida joylashgan kichik rasm.

Namoyishkorlik, ochiqlik - kaktusda bo'rtib chiqib turgan o'simtalarning borligi, shaklning jimjimadorligi.

YOpiklik, ehtiyotkorlik - kaktus konturi bo'yicha yoki ichida zigzaglarning joylashuvi.

Optimizm - yorqin ranglardan foydalanish (rangli qalamlar variantida), «xursand» kaktuslarni ifodalash;

Xavotirlanish - qora ranglardan foydalanish (rangli qalamlardan foydalanish variantida), uzuq-yuluq chiziqlar yordamidagi ichki shtrixovkalarning ko'pligi;

Ayollik xususiyatlari - bezaklarning, gullarning, yumshoq chiziq va shakllarning borligi.

## **12.«Avtportret» metodikasi**

Mualliflar: ye.S.Romanova, S.F.Potyomkina.

Proektiv metodikalar-dan biri. Katta maktab o'quvchilarining shaxsini diagnostika qilish uchun qo'llanishi mumkin. Avtoportret – insonning o'zi chizgan qiyofasi. Bu metodikaning ikki xil interpretasiyasidan biri mualliflar, ikkinchisi R.Berns (AQSH) tomonidan taklif qilingan.

Interpretasiya № 1 «Avtportret» testi R.Berns (AQSH, Insonlararo munosabatlarni rivojlantirish instituti, Sietl) tomonidan qo'llanganda, u kishilarga o'zining yakka holdagi yoki oila a'zolari bilan birga, hamksblarning orasida tasvirlashni iltimos qilgan.

R.Berns shunday yozadi: «Siz uyga kelib o'kirib – o'kirib yig'lashingiz mumkin, ammo ishxonada bunday qilmaysiz. Bunday holatingiz siz chizgan portretda o'z aksini topadi». Uning fikricha, avtoportretdagи belgilar quyidagicha aniqlanishi mumkin:

Bosh

Katta bosh – o'z aqliy imkoniyatlaridan qoniqmaslik; Kichik bosh ijtimoiy

mavqeidan norozilik, bezovtalanish.

Ko'z

Katta ko'zlar – shubxalanuvchanlik, boshqalar fikriga kup e'tibor berish. Kichik ko'zlar yoki yumuq ko'zlar – ichki yo'nalganlik. Qulqoq Katta qulqoq – tanqidga sezgirlik

Burun

Burunga alohida urg'u berish – jinsiy muammolarning mavjudligi; burun kataklarining kattaligi agressiya (jahldorlik).

Og'iz

Har qanday shaklda bo'lmasin, yaqqol ajralibtursa bu nutqiy kamchiliklarning mavjudligidan darakdir; og'izning bo'lmasligi – muloqotga kirisha olmaslik, depressiya.

Qo'llar

Kishining atrof olam bilan bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Tushirilgan qo'llar – jismoniy yoki psixik nimjonlik; uzun qo'llar tashqi muhit voqeasi – hodisalariga kuchli berilish; kalta qo'llar – ichki yo'llanganlik.

Oyoqlar

Uzun oyoqlar mustaqillikka intilish; katta oyoqlar – xavfsizlikka ehtiyoj; oyoqsiz rasm – beqarorlik, aniq maqsadlarning bo'lmaslik holati (dezertirlar odatda oyoqsiz rasm chizadilar).

Ritmik rasm (harakatdagi odamni masalan, yurayotgan, zinadan chopayotgan va h. Odamni tasvirlovchi rasm) – intuitiv ekstrovert. Strukturali rasm (Odamni qanday bo'lsa, shundayligicha, ba'zan faqat yuzni, byustni yoki butun bo'y – bastni tasvirlovchi rasm) – intuitiv introvert.

Ushbu belgilar bo'yicha quyidagi jadvaldagi o'xshab, turli rasmlar o'rtasidagi miqdoriy farqlarni aniqlash mumkin.

«Avtoportret» testi bo'yicha individual – tipologik farqlar (500 kishi orasida) Tasvir ko'rinishi G.Rid bo'yicha Psixologik tip K.Yung bo'yicha Tasvirlararo miqdoriy farqlar Sanab o'tuvchi Fikriy ekstrovert 2,4 Organik Fikriy introvert 30,3 Emfatik Sezuvchi ekstrovert 3,2 Gaptik Sezuvchi introvert 2,2 Dekorativ Hissiy ekstrovert 8,8 Imajitar Hissiy introvert 13,2 Ritmik Intuitiv ekstrovert 20,8 Strukturali Intuitiv introvert 19,1

Metodika manbasi: Rogov ye.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa: Ucheb. Posobie, V 2kn. – Z – ye. – M.: Gumanitar. Izd. Sentr VLADOS, 2000. – Kn. 1: Sistema raboty psixologa s detmi raznogo vozrasta. 346 – 353 b.

### **13. Temperamentning namoyon bo'lishini o'rGANISH metodikasi**

(Ayzenk so'rovnomasini bo'yicha o'smirlar uchun)

Temperamentning namoyon bo'lishi. (o'smirlar uchun)

Ushbu metodika Ayzenk so'rovnomasini (o'smirlar uchun) bo'lib, natijalar neyrotizm shkalasi va interversiya shkalasi bilan bog'liq tarzda o'smirlar bilan o'zaro munosabatning asosiy yo'nalishi taktikasi va har bir tipning xususiyatlarini verbal izohlashdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi: O'smirlar bilan o'zaro munosabatning asosiy yo'nalishi taktikasi va har bir tipning xususiyatlarini verbal izohlash

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: Ayzenk savolnomasi, qog'oz, ruchka yoki qalam.

Tadqiqotning borishi: Metodikani o'tkazish bosqichlari:

Ayzenk testini o'tkazish.

Natijalarni hisoblash.

Natijalarni tiplar jadvali bo'yicha gradasiyalash natijalari.

«YOlg'on» shkalasi bo'yicha

natijalar 5 dan yuqori bo'lganlar tanlovi.

Ko'rsatma: Berilgan savollarga sinaluvchi o'ylab o'tirmasdan «ha» yoki «yo'q» javobini berishlari kerak.

### **Ayzenk savolnomasi.**

Atrofingizda shovqin va g'ala-g'ovur bo'lishini xush ko'rasizmi?

Sizni qo'lllab-quvvatlab turadigan do'stlarga doim muhtojmisiz?

Sizdan biror nima haqida so'rashsa siz doim tezda javob topa olasizmi?

Siz nimadandir g'azablangan holatlar bo'lib turadimi?

Sizni kayfiyattingiz tez-tez o'zgarib turadimi?

Sizga bolalar davrasidan ko'ra kitoblar bilan bo'lish yoqimli va qulay ekanligi to'g'rimi?

Turli fikrlar sizga tez-tez uqlash uchun xalaqit beradimi?

Siz har doim ham sizga nima deyishsa aytganidek shuni qilasizmi?

Siz kimningdir ustidan hazil qilishni yaxshi ko'rasizmi?

Siz bunga haqiqiy sabab bo'lmasada o'zingizni hech baxtsiz his qilganmisiz?

Siz o'zingizni quvnoq, jonli, kirishuvchan inson deya olasizmi?

Siz məktəbda tartib-qoidalarni qoidalarni buzganmisiz?

Siz biror narsadan tez-tez g'azablanib turasizmi?

Sizga barcha ishni tez-tez bajarish yoqadimi?

Siz xavfli tugashiga oz qolgan hodisadan tashvishlanasizmi, lekin u yaxshilik bilan tugagan bo'lsada?

Sizga har qanday sirni ishonish mumkinmi?

Siz tengdoshlaringiz bilan bo'lgan zerikarli davralarni qiynalmay, osonlik bilan jonlantirib yubora olasizmi?

Sizda hech qanday sababsiz (jismoniy yuklamasiz) yuragingizni tez urish holati bo'lib turadimi?

Siz ko'pincha kim bilandir do'stlashish uchun birinchi bo'lib qadam qo'ya olasizmi?

Siz qachondir yolg'on gapirganmisiz?

Sizni va sizning ishingizni tanqid qilishsa tezda hafa bo'lasizmi?

Siz do'stlaringiz bilan tez-tez hazillashib va bo'lib o'tgan kulgili voqealarni gapirib berasizmi?

Siz o'zingizni tez-tez charchagan his qilasizmi?

Siz doim avval darsingizni, keyin boshqalarini bajarasizmi?

Siz ko'pincha xursand va hammadan mamnunmisiz?

Siz tez xafa bo'lasizmi?

Siz boshqa bolalar bilan muloqotda bo'lishni juda yaxshi ko'rasizmi?

Siz doim oilangizdagilarni xo'jalik ishlarida yordamlashish iltimoslarini bajarasizmi?

Sizda bosh aylanish holati bo'lib turadimi?

Sizning harakatlaringiz va hulqingiz boshqalarni noqulay ahvolga solib qo'yadigan holat bo'lib turadimi?

Siz biror nimani joningizga tekkanini tez-tez his qilasizmi?

Siz ba'zida maqtanishni yaxshi ko'rasizmi?

Siz notanish kishilar orasiga tushib qolsangiz, ko'pincha indamay, tek o'tirasizmi?

Siz ba'zan bir joyda o'tira olmasligingizdan xavotirlanasizmi?

Siz ko'pincha tez qaror qabul qilasizmi?

Siz sinfda hech shovqin qilmaysizmi, hatto o'qituvchi yo'q bo'lganda ham?

Siz tez-tez qo'rqinchli tushlar ko'rasizmi?

Siz do'stlaringiz davrasida quvnoq bo'lib, hissiyotlaringizga erk bera olasizmi?

Sizni xafa qilish osonmi?

Sizni biror odam haqida yomon gapirgan holatingiz bo'lganmi?

Siz har doim ham atay o'ylab olish uchun to'xtamay, tez gapirishingiz va harakat qilishingiz to'g'rimi?

Siz qachondir ahmoqlik holatiga tushib qolgansiz, keyin uzoq vaqt tashvishlanasizmi?

Sizga shovqinli va quvnoq o'yinlar juda yoqadimi?

Siz doim nima berishsa shuni yeysizmi, ya'ni ovqat tanlamaysizmi?

Sizdan nimadir iltimos qilishsa «yo'q» deyishga qiynalasizmi?

Sizga tez-tez mehmonga borish yoqadimi?

Sizni hayotda yashash qiyin degan vaqtлaringiz bo'lib turadimi?

Siz qachondir ota-onangizga qo'pollik qilganmisiz?

O'rtoqlaringiz sizni quvnoq va hozirjavob inson deb hisoblashadimi?

Siz dars qilayotgan vaqtida tez-tez chalg'ib turasizmi?

Siz ko'pincha quvnoq vaziyatni yuzaga keltirish uchun faol qatnashgandan ko'ra, o'tirib tomosha qilasizmi?

Siz ko'pincha turli fikrlar bilan uqlashga qiynalasizmi?

Sizda oldindan bajarishingiz kerak bo'lgan ishlarni bajara olishingizga to'la ishongan paytlar bo'lib turadimi?

Siz o'zingizni yolg'iz his qilgan paytlar bo'lib turadimi?

Siz yangi uchratgan insonlarga birinchi bo'lib gapirishga uylasizmi?

Sizda to'g'rilashingiz kech bo'lgan biror nimani o'ylab siqilish holatlari bo'lib turadimi?

Bolalardan birortasi sizga baqirsa, siz ham javob tariqasida unga baqirasizmi?

Siz ba'zida hech qanday sababsiz o'zingizni quvnoq yoki hafa his qilasizmi?

Siz do'stingizni jonli (quvnoq) davrasida haqiqiy qoniqish olish qiyin, deb hisoblaysizmi?

Siz tez-tez o'ylanmay qilingan biror nima uchun doim tashvishlanasizmi?

### Kalit

Ekstreversiya (e)

«XA»: 1,3,9,11,14,17,19,22,25,27,30,35,38,41,43,46,49,53,57.

«Yo'q» : 6,33,51,55,59.

Neyrotizm (n)

«Ha»: 2,5,7,10,13,15,18,21,23,26,29,31,34,37,39,42,45,47,50,52,54,56,58,60

«Yolg'on»


«Ha»: 8,16,24,28,36,44

«Yo'q»: 4,12,20,32,40,48

Natijalar quyidagi jadval bo'yicha gradasiyalanadi

№	Ayzenk testi bo'yicha natija	
	«E» ballari	«N» ballari
1	0-4	0-4
2	20-24	0-4
3	20-24	20-24
4	0-4	20-24
5	0-4	4-8
6	0-4	16-20
7	0-4	8-16
8	4-8	0-4
9	8-16	0-4
10	16-20	0-4
11	20-24	4-8

12	20-24	8-16
13	20-24	16-20
14	16-20	20-24
15	8-16	20-24
16	4-8	20-24
17	16-20	4-8
18	4-8	16-20
19	4-8	4-8
20	16-20	16-20
21	12-16	8-12
22	8-12	8-12
23	16-20	8-12
24	12-16	4-8
25	8-12	4-8
26	4-8	8-12
27	4-8	12-16
28	8-12	16-20
29	12-16	16-20
30	16-20	12-16
31	8-12	12-16
32	12-1	12-16



№ 1 tip

E: 0-4 N: 0-4

Xususiyatlarning namoyon bo'lishi (X.N.B). Osoyishta, tinchliksevar, og'ir, vazmin. Guruhda kamsuqum. Agar unga do'st bo'lish taklif qilinsa qabul ham qilolmaydi, lekin rad ham etmaydi. O'zini haq ekanligini his etsa o'jarlikka moyillik kuzatiladi. Kulgiga moyil emas. Nutqi osoyishta. Sabr-toqatli. Sovuqqon.

Korreksiya qilish yo'llari: (Q.Q.Y.) Ular o'qituvchilarni kam bezovta qiladi. Demak e'tiborsizlikdan qiynaladi. U bilan munosabatda muhimi guruhning unga diqqat e'tiborini va o'z-o'ziga bahosini oshirish zarur. U kishiga ishslash tempini tanlash imkoniyatini ham yaratish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Sovuqqonlik, kamtarlik (kamsuqumlik) sifatlarini qimmatini ta'kidlab turish ham mumkin.

## № 2 tip.

E: 20-24; N: 0 – 4

X.N.B. Quvnoq, muloqotga kirishuvchan ko'p gapisradi. Ko'zga yaqin bo'lishni yoqtiradi. Optimist. Muvaffaqiyatga ishonadi, yuzaki xafalikni tez kechiradi, kelishmovchiliklarni xazilga aylantiradi. Ta'sirlanuvchan, yangilikni yaxshi ko'radi. Barchaga bo'lgan muhabbatdan foydalanadi. Lekni yuzaki va beparvo. Talabchan. Artist. Natijalarga erishishni bilmaydi. (qiziquvchan, lekin tez soviydi)

K.Q.Y.: mehnatsevarlikni rag'batlantirish, tabiiy artistlik va yangilikka moyilligidan foydalanish kerak.

Asta-sekin intizom va tashkilotchilikda barqarorlikni o'rgatish zarur. Vaqtini tashkillashga yordam berish tavsiya etiladi.

## №3 tip

E: 20-24; N: 20-24

X.N.B. Faol, yaxshi taraqqiy etgan jangovor sifatlarga ega. Kulgiga moyil emas. Barcha bilan «teng» munosabatda bo'lishga intiladi. Juda ham haqiqatgo'y. Biror holat bilan kelisha olmagan hollarda faol qarshi kurash holatini egallaydi. O'ziga nisabatan befarqlikni ko'tara olmaydi.

Q.Q.Y. Asosiy ta'sir ko'rsatish usuli – bo'rtirilgan, alohida e'tibor berilgan, hurmat, o'zaro munosabatni ishonch, osoyishta, samimiy xolda muloqot orqali o'rnatgan maoqlu.

Affektiv holatda istoxzo, kesatiq zaharxanda, kinoya orqali reaksiya bildirishi mumkin. Kelishmovchilik holatda «munosabatlarni aniqlashtirib olishi» mumkun emas.

Buning uchun diqqat e'tiborini muammoga va uni emosional zo'riqishsiz yechish mumkin bo'lgan imkoniyatlarga qaratish mumkin. Bu tengdosh o'smirga tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etishga va energiya potensialini sarflash uchun imkon yaratish lozim.

## № 4 tip.

E: 0-4; N: 20-24

X.N.B. Bu notinch tip. Hushyor, bezovta, o'ziga ishonchi yo'q. O'ziga panoh qidiradi. Muloqotga kirishuvchan emas, shuning uchun aralash baholash va o'z-o'zini baholashga ega.

Sira gap ko'tarolmaydi. Moslashish jarayoni uzoq, shuning uchun ta'sir ko'rsatish sekin yuzaga keladi. Faol hayotni yoqtirmaydi. Hayolga beriluvchan. Ko'p hollarda falsfaga moyil. Vaziyatni tez drammalashtiradi.

K.Q.Y. Qo'llab-quvvatlashga intilishi kerak. Kulgili holatlardagi saqlamoq

zarur. Ijobiy tomonlarini alohida taokidlamoq . Faol muloqot va qat'iy vaqt reglamentni talab etmaydigan faoliyatni tanlash , hamda qat'iy bo'ysunishi tizimi bilan bog'lanmasligi kerak. Tevarak atrofga qiziqishini faollashtirish. Asta-sekin samimiy, g'ayratli kishilar davrasiga qo'shib borish kerak.

**№ 5 tip.**

E: 0-4; N: 4-8

X.N.B. Xayolga beriluvchan (o'z fikr-xayollariga cho'mgan). Sokin. Real hayotga qiziqishi past darajada, demak, muvaffaqiyatga erishishi past. Ichki o'ychanlik va qarama-qarshi qarashlarga yo'naltirilgan. Gap so'zga kirib itoat bilan qulq soluvchi – beparvo .

K.Q.Y. O'ziga yuqori baho berishni oshirishga ham muhtoj. Bu beparvolikni yo'qotib intilish darajasini oshiradi. Biror ish bilan shug'ullanishi uchun kuchli tomonlarini topish mumkin.

**№6 tip.**

E: 0-4 N: 16-20

X.N.B.: O'zini tuta biladi, og'ir, vazmin, bosiq, juroatsiz, tortinchoq, notanish vaziyatda uyaladi. Ishonsiz, orzular og'ushida yashaydi. Falsafiy fikrlashni yoqtiradi. Ko'p odamlar davrasini yoqtirmaydi. SHubhalanishga moyillik mavjud. O'z kuchiga kam yashonadli.

Muvozanatlashgan. Vaziyatni drammalashtirish va vahimachilikka moyil emas. Bezovta Tez-tez juroatsizlik bo'lib turadi. Faktorga moyil.

K.Q.Y. Guruh oldida ijobiy sifatlarini qo'llab-quvvatlar, alohida ko'rsatib o'tish, g'amho'rlik qilishga harakat qilish kerak. Qandaydir g'alvalar bilan band etish zarurki, bu o'z-o'ziga bahoni oshirishga, hayotda optimistlikni sezishga olib keladi.

**№ 7 tip.**

E: 0-4; N: 8-16

X.N.B. Kamsuqum, faol, biror ishga yo'nalgan. Haqiqatgo'y, sadoqatli do'st, juda yaxshi mohir yordamchi, lekin yomon tashkilotchi. Uyatchan. Soyada qolishni afzal ko'radi. Davrada hamroh bo'la olmaydi. Ikki kishi bo'libgina do'st bo'la oladi. O'zaro munosabatlarga katta ahamiyat beradi.. Baozan zerikarli-nasihatgo'y.

K.Q.Y. Hayot faoliyati jarayonida imkoniyatiga qarab erkin tartib yaratish va rag'batlantirib turish kerakka, bu uning tashabbuskorlikni faollashtiradi. Uni ozod qilishga harakat qilish kerak, bunda u birovlar buyrug'i bilan emas, mustaqil harakat qiladi. Ochiqchasiga tanqiddan qochish kerak. O'z kuchi va huquqiga ta'sir ko'rsatib ishonch hosil qilish kerak. Kimningdir obro'yiga ko'r-ko'rona ishonishga yo'l qo'ymaslik zarur.

### № 8 tip.

E: 4-8; N: 0-4

X.N.B. Hotirjam (bamaylixotir, tinch) odam. Davralarda muloqotga moyil. Estetik qobiliyatli. Faollikdan ko'ra hayoliy o'y fikrlarga beriluvchan. Muvozanatlashgan. Muvoffaqiyatlarga befarq. «Hamma qatori» yashashni yoqtiradi. Kelishmovchilardan oson qochadi.

O'zaro munosabatlarda bir tekkisda bo'ladi, lekin chuqur qayg'urish, tashvishlanishni bilmaydi.

K.Q.Y. Asosiy vazifa – faoliyatga bo'lgan ehtiyojini faollashtirish. Qiziqarli bo'lishi mumkin bo'lgan mashg'ulotni topish. Muvaffaqiyatlarni topish. Muvoffaqiyatlarni rag'batlantirish. O'smir bilan tez-tez muloqotda bo'lib turish. Bunda uning ijtimoiy intelektini taraqqiyotiga e'tiborni qaratish lozim.

### № 9 tip

E: 8-16 N: 0-4

X.N.B. Faol. Hayotdan zavqlanib yashaydi. Muloqotga kirishuvchan. Muloqotda yaxshi yolg'onini farq qilmaydi. Ijtimoiy bo'lмаган, buzg'unchi guruhlrga tez berilib qoladi. YAngilikka hamma narsani bilishga moyilligi bor. Ijtimoiy intelekti zaif rivojlangan. Baholash va o'z-o'zini to'g'ri baholash o'quvi yo'q. Tez-tez qatpiy ustanovkalar bo'lmayd.. G'ayratli, ishonuvchan.

K.Q.Y. tartib qattiq, bolani biror ishga jalb (safarbar) etilgan bo'lishi. Samimiy munosabat o'rnatilgan bo'lishi kerak, lekin bola uni kuzatayotganliklarini his qilishi kerak.

Kuch-g'ayratini foydali ishga yo'naltirish zarur. Bunday holda birgalikda qo'yilgan ishni bajarish rejasini tuzish vaqtini va hajmini aniqlash va bajarilishini qattiq nazorat qilish. Bunday o'smirlarni ijobiy ustanovkalarga ega, kuchli peshqadam guruh tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq bo'lardi.

### № 10 tip.

E: 16-20; N: 0-4

X.N.B. Artistlik xususiyatiga ega. Vaqtichog'lik qilishni yoqtiradi. Qunt, tirishqoqlik yetishmaydi. Muloqotga kirishuvchan. Muvozanatlashgan kaltabin.

K.Q.Y. Qiziqarli maqsadlarga erishish yo'naltirishni oshirish. Artistlik xususiyatini rag'batlantirish, lekin masqarabozlikka yo'l qo'ymaslik.

### № 11 tip.

E: 20-24; N: 4-8

N.B.H. Faol. Muloqotga kirishuvchan. Oliyjanob, izzattalab. Hatarli

ko'ngilocharlarga tez rozi bo'ladi. Muvoffaqiyatga erishishda barchasida do'stlarni har doim ham sinchkov emas. Minnatdor. Baozan hudbin (egoist). yoqimtoy, tashkilotchilik layoqatiga ega.

K.Q.Y. tashkilotchilik layoqatini rag'batlantirish va rivojlantirish. Peshqadam bo'lishi mumkin, lekin nazorat qilib tuish kerak. Dimog'dorlik, gerdayishdan tiyib turish kerak. Jamoada peshqadam holati dangasalik, ezmalikni oson bartaraf etadi. «Otliq» bo'lishini yoqtiradi. Zarur bo'lgan vaqtda jamoada tanqidga yo'l qo'yish mumkin.

#### № 12 tip.

E: 20-24; N: 8-16;

N.B.X. Intizomga oson bo'ysunadi. Tashkilotchi. O'z qadr-qimmatiga ega. San'at va sportga moyil. Faol. Sevuvchan. Kishilar va hodisalarga ishqivoz, osongina qiziqib ketadi. Ta'sirlanuvchan.

K.Q.Y. Fe'l – atvori ishchanlik rejasiga va emosionalligiga peshqadamlilikka xosdir. Peshqadamlik xususiyatini qo'llab-quvvatlash, yordam berish va xizmat, shaxsiy rejaga ko'ra yo'naltirish kerak.

#### № 13 tip.

E: 20-24; N: 16-20;

X.N.B. Murakkab tip. SHuhratparast. O'ziga bino qo'ygan. G'ayratli. Xushchaqchaq. YUqori darajadagi maonaviy yo'nalishga ega emas. Kundalik shodxurramlik bilan band. Xayotning bosh burchagiga maishiy ehtiyojlarni qo'yadi. Obro'-e'tibor oldida taozim qiladi.

Bor kuchi bilan yutuq, muvaffaqiyat va foydaga erishish uchun intiladi. Ishi yurishmaydigan kishilardan jirkanad, nazar-pisand qilmaydi. Muloqotga kirishuvchan. Namoyishkarona tip. O'z talablarini qattiq turib ilgari suradi.

K.Q.Y. Kattalarning maqsadi- atrofdagilarni o'ziga bo'ysundirishi, dimog'dorlikka moyilligini hisobga olganda o'smirni «ramka ichida» ushlab turishdan iborat. Sokin va qatpiy tarzda ta'sir ko'rsatish, boshqalarda mavjud ijobiy sifatlarni alohida taokidlاب turish.

Tashkilotchi rolini taklif etish mumkin. Bunda o'z burchini bajarishni talab etish kerak. Estetik tarbiyalash ham maqsadga muvofiq.

#### № 14 tip.

E: 16-20; N: 20-24;

X.N.B. Xukmron. Gumansiraydigan, xafsiraydigan tip. Sinchkov, rasmiyatchi, doim birinchilikka intiladi. Pastkash, o'zining har qanday ustunligidan huzurlanadi. Zaharxanda, serzarda. Kuchsizlarni ustidan kulishga moyil. Qasoskor.

Mensimas. Zolim. Xorg'in.

K.Q.Y. Beparvo bo'lmaslik kerak. Do'stona munosabatda bo'lish ham mumkin, kinoyali munosabatda bo'lish ham mumkin. Peshqadamlik holatini egallash uchun imkon berish mumkin, lekin buning uchun kishilar bilan emas, qog'ozlarga bog'lash.

E'tiborni ko'proq qaratadigan postni tanlash lozim. Iroda va qatpiylikni rag'batlantirish kerak. Bu orqali o'smirni o'ziga va boshqalarga ijobiy emosional munosabatlarini va ijobiy usttanovkalarni tarbiyalash lozim.

#### № 15 tip.

E: 8-16; N: 20-24;

X.N.B. Doim norozi, vaysaqi, asossiz ayplash, «tirnoqdan kir qidirish»ga moyil. Pastkash-talabchan. Zaharxandalikka moyil emas. Arzimagan narsalarga ham tez hafa bo'ladi. Tez-tez xo'mraygan, jizzaki hasadgo'y. Biror ishda dadil emas. Munosabatlarda bo'ysunuvchi qiyinchiliklar oldida chekinadi. Guruhda bir tomonda turadi. Kekchi Do'stlari yo'q. Tengdoshlariga bo'yruq beradi. Ovozi past, keskin.

K.Q.Y. Hech bo'limganda ozgina bo'lsa ham o'zaro munosabatlarni o'rnatish. Buni uning xavfsirash xususiyatiga asoslanish osonlashtiradi.

Qandaydir tashkiliy ijtimoiy ishlarni yuklatish kerakki bu o'zaro munosabatlar uning uchun tayanch hisoblanadi.

Bunda kanselariya ishlarini tanlash mumkin. (bolada mavjud rasmiyatçilik xususiyati bu ishni yaxshiroq bajarish imkonini beradi). Tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun jamoa oldida uning ijro etuvchilik faoliyatini rag'batlantirish. Bu tipdag'i o'smir doimiy e'tibor va individual o'zaro munosabatlarni talab etadi.

#### № 16 tip.

E: 4-8; N: 20-24;

X.N.B. YUksak hissiyotli tip, ishonmaydigan, yashirin-ehtirosli, kamgap, odamovi-arazchi. Mustaqil, o'zini sevadigan, tanqidiy aqlga ega. Pessimist. Umumlashtiruvchi tafakkurga layoqatli. Tez-tez o'ziga ishonmay qoladi.

K.Q.Y. O'zini ehtiyyot qiladigan tartib va samimiylit, hurmat qilish sifatlarini guruh oldida rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Haqqoniy tanqidiy muhokamani qo'llab-quvvatlash bunda nasihatgo'ylik va tanqidbozlikka yo'il qo'ymaslik zarur.

#### № 17 tip.

E: 16-20; N: 4-8;

X.N.B. Juda ham emosional. Zavqli. Hushchaqchaq, muloqotga

kirishuvchan, sevuvchan (tez oshiq bo'ladigan). Munosabatda- farqlamadigan, hammga nisbatan do'stona. O'zgaruvchan, sodda, bolalarcha feol-atvorli muloyim. Atrofdagilarning yoqtirishidan foydalandi. Xayolparast. Peshqadamlikka intilmaydi. CHunki yashirin do'stona bog'likni afzal ko'radi.

K.Q.Y. Ijobiy kayfiyatni qo'llab-quvvatlab, estetik moyillikni rivojlantirish mumkin, ishtiyoyqini qo'llab-quvvatlash. Irodaviy sifatlarni rivojlantirishga e'tiborni qaratish kerak,

#### № 18 tip.

E: 4-8; N: 16-20;

X.N.B. Birovdan namuna oladi. Juda ham rahmdil, ko'ngilchan, kuchsizlarni qo'llab-quvvatlashga moyil, yashirin-do'stona bog'liqlikni afzal ko'radi. Kayfiyati ko'p xollarda tinch. Kamsuqum, uyatchan. O'ziga ishonchsiz, kuzatuvchi, xayolchan. Noqulay sharoitda tez hushyor va gumonsiraydigan bo'lib qoladi.

K.Q.Y. Ehtiyot qilib rivojlantirish yo'lga solish tavsiya etiladi. Asta-sekin nazorat qilmoq va osoyishta-samimi munosabatda bo'lish. Maqsadga erishish, faol holatni shakllantirish, munosabatlarni to'g'ri yo'lga solish kabi, qiyin vaziyatlarda yordam berish. Salbiy baholashda namoyishkorona muhokamaga yo'l qo'ymaslik kerak.

#### № 19 tip.

E: 4-8; N: 4-8;

X.N.B. Osoyishta tip. Indamas, mulohazali. Sekin-faoliyatli, juda ham izchil, mustaqil, sinchkov. Beg'araz, kamsuqum, past-emosional. Ba'zida reallikdan uzoq.

K.Q.Y. Bu tipdag'i o'smirda o'z-o'ziga baho berishni oshirish, intilish tizimini rivojlantirish, qobiliyat va moyilliklarini ochish kerak. Nimagadir qiziqtirish yuqori darajada shaxsiy maxsulotni talab etadigan ishni topshirish mumkin.

Bunda kishilar bilan emas qog'ozlar bilan bog'liq ishlarni topshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tipdag'i o'smir turli muammolar bo'yicha maslahatga muhtoj bo'ladi, lekin nazokat, odob, xushmuomilalik bilan ifodalanadi.

#### № 20 tip.

E: 16-20; N: 16-20;

X.N.B. U juda ham namoyishkorona, hamdardlik ko'rsata olmaydi. Emosional kambag'al. O'zini jamoaga taqqoslashni yoqtiradi. O'zi uchun qadr-qimmatga ega yutuqlarga erishishda juda ham g'ayratli. Obro'-e'tibor talab. Ikki yuzlamachi. Amaliyotchi.

K.Q.Y. Salbiy xislatlarni kuchaytirmaslik uchun o'zaro munosabatlarda yumshoq, sabrli bo'lish kerak. O'smirni g'ayratini ijobjiy tomonga yo'naltirish uchun

sport va texnika mashg'ulotlarini qiziqtirish kerak, ehtiyojini esa birinchi bo'lishga. Estetik tarbiyalash mumkin. Kuchli peshqadamga ega ijobiy ijtimoiy guruhlarga qo'shish zarur.

№ 21 tip.

E: 12-16; N: 8-12;

X.N.B. Juda ham g'ayratli, hushchaqchaq. Tomoshabinlarning sevimligi. Bu tipdag'i o'smirlar baxtli hisoblanadilar. Haqiqatdan ham ular ko'pincha juda iqtidorli, oson o'rganadilar, artistona, tez charchashmaydi.. Ba'zan bu sifatlar salbiy natajalarni beradi.

O'smirlar yoshligidan ularga nima oson bo'lsa o'zini shunga jalb etadi. Natijada Muvaffaqiyatga erishish maqsadini jiddiy o'rganishmaydi. Hamma narsani tashlashlari oson, tez-tez do'stlikni uzib qo'yishadi. YUzaki. Past darajada ijtimoiy intelektga ega.

K.Q.Y. Samimi. Talabchan munosabat talab etiladi. Jamoada peshqadam vazifasiga tayinlamagan ma'qul. Topshiriqlarni bajarishni qat'iy talab etish kerak. O'smir bilan biror faoliyatga maqsad topish kerak, bajarish vaqtini belgilash, bajarilishini nazorat qilish kerak.

Bu bir tomondan oldiga qo'yilgan maqsadga erishishga yordam bersa, ikkinchi tomondan tartibli ishslashga o'rgatadi.

№ 22 tip.

E: 8-12; N: 8-12;

X.N.B. Juda passiv-befarq. O'ziga ishongan. Atrofdagilar bilan munosabatda qat'iy-talabchan. Kekchi. Tez-tez passiv o'jarlik namoyon bo'ladi. Juda rasmiyatchi, pastkash. Mulahazali, sovuqqon. Boshqalarning fikriga nisbatan befarq. Rigid, odatiy ishlarni va maishiy bir xillikni afzal ko'radi. Nutq ohangi ifodalananligi pasti. Estetik darajasi past.

K.Q.Y. O'smirni tarbiyalash uchun qiziqarli ekanligini his qilishni yuzaga keltirish. Maishiy sohaning ikir-chikirlariga qiziqtirish kerak. Ijtimoiy topishirqlarni tanlashda tartibli saranjom-sarishtalikni talab etadigan ishlarni bajarishni tanlash ma'qul. Ishning bajarilishini rag'batlantirish. Mashg'ulotlar tanlashda yordam berish.

№ 23 tip.

X.N.B. Muloqotga kirishuvchan, faol. Tashabbuskor, ishqivoz. Bunda o'zini boshqara oladi. Mo'ljallangan maqsadga erishishni biladi. Izzattalab. Peshqadamlikni yoqtirmaydi va tashabbuskor bo'la oladi. Atrofdagilarning ishonchi va samimi hurmatlaridan foydalanadi. Xarakteri yengil, estetik, kayfiyati chog'.

K.Q.Y. Peshqadamlikka imkon yaratish. Guruhiy va yakka masalalarni

yechishda yordam berish.

**№ 24 tip.**

E: 12-16; N: 4-8;

X.N.B. Faol, muvozanatlashgan tip. G'ayratli. Muloqotga kirishuvchanligi o'rtacha. Ko'p sonli do'stlarga bog'langan. Tartibli. O'z olidiga muammolarni qo'ya oladi va ularni yechimini topishga erishadi. Raqobatga moyil emas. Ba'zida arazchi.

K.Q.Y. Atrofdagilarning osoyishta ishonchli munosabatlarini afzal ko'radi. Aniq ishga aloqador bog'lanishlarni to'g'rakash maqsadga muvofiq.

**№ 25 tip.**

E: 8-12; N: 4-8;

X.N.B. Faol, ba'zida portlovchi, ba'zida beparvo-quvnoq. Tez-tez osoyishta-befarq. Tashabbuskorlik deyarlik namoyon bo'lmaydi, ko'rsatma asosida harakat qiladi. Ijtimoiy munosabatlarda passiv. CHuqur emosional kechinmalarga beriluvchan emas. Sinchkovlik talab etiladigan, bir xilligi o'zgarmas ishlarga moyil.

K.Q.Y. Osoyishta-ish yuzasidan munosabat maqsadga muvofiq bo'lardi. YAKka mashg'ulotlarni topish va tavsiya etish kerak. Administrativ ishlarni yaxshi amalga oshiradi.

**№ 26 tip.**

E: 12-16; N: 8-12;

X.N.B. Sokin, muvozanatlashgan, sabr-toqatli, rasmiyatchi. Izzattalab. Aniq maqsadli. Qattiq prinsipga, qoidaga ega. Vaqtı-vaqtı bilan arazchi.

K.Q.Y. Uni osoyishta templi, ishonchli ishlarni yoqtirishini hisobga oling. Betakalluflikka moyil emas. Guruh olida tartibligi, bajaruvchiligini rag'batlantirish mumkin. O'z kuchiga ishonchni oshirish ustida ishslash kerak.

**№ 27 tip.**

E: 4-8; N: 12-16;

X.N.B. Muvozanatlashgan, melanxoliklarcha nozik hissiyotli. Tez ko'ngil qo'yadigan; ishonchli-yashirin munosabatlarni qadrlaydi. Sokin. Hazilni qadrlaydi. Optimist. Ba'zida sarosimaga tushadi, ba'zida depressiyaga. Ko'p hollarda osoyishta-uyatchan.

K.Q.Y. Faol-osoyishta faoliyatini yuzaga keltirish. Qat'iy vaqt ni belgilashdan qochgan ma'qul. Estetik va adabiy mashg'ulotlar tavsiya etiladi.

**№ 28 tip.**

E: 8-12; N: 16-20;

X.N.B. Melanxoliklarga xoslik, haqiqatgo'y, jiddiy bir so'zli. Ba'zida g'amgin-xavotirli kayfiyatga moyil. Davradagi ko'p sonli kishilar bilan do'stlashadi. Arazchi emas, lekin ba'zida shubhalanuvchan. Qat'iy savollarga mustaqil yechim topa oladi, lekin bu emosional hayotdagi yaqinlariga bog'liq.

K.Q.Y. O'z-o'ziga baho berishni oshirish, o'ziga ishonchni mustahkamlashga yo'naltirish tavsiya etiladi.

№ 29 tip.

E: 12-16; N: 16-20;

X.N.B. Atrofdagilarga qatpiy talabchan; o'jar, mag'rur, juda ham izzattalab, g'ayratli, muloqotga kirishuvchan. Kayfiyati ko'p hollarda jangovor. Omadsizliklarini yashiradi. Ko'zga yaqin bo'lishni yoqtiradi. Sovuqqon.

K.Q.Y. O'zaro munosabatlarni yuqori talabchanlik hurmat asosiga qurish. Agar o'smir balandparvoz (manman) bo'lsa ayblaridan kulish mumkin.

№ 30 tip.

E: 16-20; N: 12-16;

X.N.B. Mag'rur, birinchilikka intiladi. Kekchi. Hamma sohada peshqadam. Bo'lishga intiladi. G'ayratli, bir so'zli, qatpiyatli. Osoyishta, tejamkor Xaf-hatarlarni yoqtiradi, muvaffaqiyatga erishishda chekinmaydi. Quruq sovuq bo'lsa ham artistlikdan mahrum emas.

K.Q.Y. Gerdayishga yo'l qo'ymaslik. Ijobiy tomonlarga kuchaytirgan holda ushslash. Peshqadamlidka yordam berish, Munosabatlarda bo'yruqbozlikka yo'l qo'ymaslik. Darg'azablikni neytrallashtirish. Ijtimoiy intellektni rivojlantirish

№ 31 tip.

X.N.B. Uyatchan, hasadgo'y emas. Mustaqillikka intiladi, tez-tez ko'ngil qo'yadigan samimiylar. yaqinlari davrasida kuzatuvchanlik, hazilkashlik namoyon bo'ladi. CHuqr ishonchli munosabatlarga moyil. Xavf-xatarli vaziyatlardan qochadi.

Tez tempga toqati yo'q. Ba'zida muammoni tez yechimini topishga layoqatli. O'z ishlaridan tez-tez afsuslanib turadi. Muvaffaqqiyatsizliklarda faqat o'zini ayblaydi.

K.Q.Y. Osoyishta, samimiylar holat bilan ta'minlash. Ish yuzasidan faol yechim topish ishlariga jalb qilish. Ijtimoiy faollikni rag'batlantirish qandaydir tadbirda ishtirok etishga jalb etish zarur.

№ 32 tip.

E: 12-16; N: 12-16;

X.N.B. SHuhratparast, muvaffaqqiyatsizliklar o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmaydi. Kekchi. Takabbur (manman) G'ayratli Qat'iyatli. Aniq maqsadli. Kelishmovchiliklarga moyil. Nohaq bo'lganda ham yon bermaydi. Vijdonini ishga solmaydi.

Muloqotda hamdardlik, qayg'udosh bo'lishga moyil emas. Ma'lumotlar berib turilishini qadrlaydi. Emosional jihatdan chegaralangan tip.

(500 kishi orasida)

